



MILLIY ARMIYA – ONA YURT QALQONI, TINCHLIGIMIZ POSBONI!

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

VATANPARVAR



AYYOMIDIR VATAN MARDLARIN

Kunduzlar nurafshon, tunlar charog'on,
Tinchlikdan bong urar bunda har sado.
Vatan deb qad tutar har jasur o'g'lon,
Qo'llarda yuksalar muzaffar tug'ro.

Bugun alp erlarni qutlaydi zamin,
Qutlaydi lochinlar charx urgan samo.
Bugun ayyomidir Vatan mardlarin,
Ezgu tilaklarga har yurak oshno.

Hurlikning lahzasi jon qadar aziz,
Unga umrin tikkan mardlar sog' bo'ling.
Siz borki tinchlik bor, Vatan daxlsiz,
Bu yo'lda hamisha ko'ksi tog' bo'ling.

Or-u g'ururingiz osmonga tutash,
Buyuk ajdodlarning zurriyotisiz.
Mardlikka chorlaydi bu mehri otash,
Yurt deb yonganlarning pok avlodisiz.

Siz bor, ona yurtga qo'l cho'zolmas yov,
Ming sinov oldida qaddingiz shamshod.
Ko'ksingizda so'nmas shiddatli olov –
Bu, Vatan oldida qilgan Qasamyod.

Samo lochinisiz, zamin yo'lbarsi,
Yurt uchun har lahza umringiz fido.
Siz ahli erlarning eng zabardasti,
Siz Temur avlodi – mardlikda tanho.

Zulfiya YUNUSOVA



IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY,
HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

GAZETA 1992-YILNING
4-IYUNIDAN CHIQA BOSHLAGAN
WWW.MV-VATANPARVAR.UZ

2026-YIL 9-YANVAR
№2 (3168)



MILLIY ARMIYA — ONA YURT

Mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar davlat va jamiyat hayotining barcha sohalari qatori mudofaa va xavfsizlik tizimini ham sifat jihatidan mutlaqo yangi bosqichga olib chiqmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondonining qat'iy siyosiy irodasi va uzoqni ko'zlagan strategiyasi asosida Qurolli Kuchlarni har tomonlama rivojlantirish, harbiy xizmatchilarning xizmat va yashash sharoitlarini tubdan yaxshilash, zamon talablariga javob beradigan mustahkam infratuzilmani shakllantirishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Bu esa nafaqat milliy armiyamizning jangovar shayligi va qudratini yuksaltirishga, balki uning xalq bilan yanada yaqinlashuviga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan Mudofaa vazirligi Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi tasarrufidagi Toshkent viloyatida joylashgan harbiy qismda harbiy xizmatchilar uchun yangidan barpo etilgan zamonaviy o'quv binosi va inshootlarning tantanali ravishda foydalanishga topshirilishi ana shu ezgu maqsadning amaliy ifodasi bo'ldi.

Tantanali marosimda O'zbekiston Respublikasi mudofaa vaziri general-

leytenant Shuxrat Xalmuxamedov, O'zbekiston Qahramoni Saidali Rahmonov, "OKMK" AJ rahbariyati, Olmaliq shahar hokimligi hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Dastlab harbiy qismga tashrif buyurgan mehmonlar yangidan barpo etilgan nazorat o'tkazish joyining jihozlanishini ko'zdan kechirdi, zamonaviy qurol-aslahalar, harbiy anjomlar, modernizatsiya qilingan harbiy texnikalar ko'rgazmasida ishtirok etdi. Shu asnoda, ular Qurolli Kuchlarimiz salohiyati yildan yilga



QALQONI, TINCHLIGIMIZ POSBONI!

mustahkamlanib borayotganining yaqqol guvohi bo'lishdi.

Mudofaa vaziri boshchiligidagi mazkur hududga ezgu niyatlar bilan daraxt ko'chatlarini ekish marosimi ham tadbirning ahamiyatli qismi bo'ldi. Zero bu ezgu amal tabiatga e'tibor, "yashil makon" yaratish hamda kelajak avlod uchun sog'lom muhit qoldirish g'oyalarining amaliy ifodasidir.

Shundan so'ng harbiy qism o'quv binosini tantanali ravishda foydalanishga topshirish marosimi bo'lib o'tdi va tadbir ishtirokchilari undagi mavjud qulayliklar hamda shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishtirildi.

Uch qavatdan iborat mazkur zamonaviy binoda jangovar tayyorgarlik xonalari, ma'naviy-ma'rifiy mashg'ulotlar uchun maxsus auditoriyalar, IT sinflari, ruhiy zo'rqiqlarni bartaraf etish xonasi, boy kitob fondiga ega kutubxona kabi 50 dan ortiq o'quv va xizmat xonasi barpo etilgan bo'lib, bu harbiy xizmatchilarning bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularning ma'naviy ruhiyatini mustahkamlash, xizmat samaradorligini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar bilan jihozlangan IT sinflari zamonaviy



Kichik serjant Ixtiyorjon MAMAJONOV



yuksak e'tibori va ishonchining yorqin namunasi sifatida tarixga muhrlanayotganini e'tirof etdi. Bunday g'amxo'rlikka munosib ravishda harbiy xizmatchilar ham o'z zimmasiga yuklatilgan muqaddas burch – Vatan tinchligi va xalq osoyishtaligini ta'minlash yo'lida bilim, mahorat va sadoqat bilan xizmat qilishga hamisha shayligini, Yangi O'zbekiston taraqqiyoti yo'lida o'z kuch-g'ayratini ayamaslikka qat'iy bel



harbiy mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yakunda harbiy xizmatchilar, hamkor tashkilot va keng jamoatchilik vakillari ishtirokida tantanali miting bo'lib o'tdi. Unda so'zga chiqqanlar keyingi yillarda harbiy qism va muassasalarda amalga oshirilayotgan bunday bunyodkorlik ishlari mamlakatimizda armiyani isloh qilish, uni zamon talablariga mos ravishda rivojlantirish yo'lidagi izchil siyosatning amaliy samarasi ekanini ta'kidladi. Muhimi, bu kabi islohotlar hukumatimizning Vatan himoyachilariga bo'lgan



bog'laganini, bu esa yurt tinchligi ishonchli qo'llarda ekanini quvunch bilan so'zlashdi.

Shu kuni harbiy qismga maxsus texnikalar topshirildi. O'quv binosining barpo etilishida faol qatnashgan hamda xizmat vazifasini sidqidildan bajarib kelayotgan bir guruh harbiy xizmatchilar faxriy yorliq, ko'krak nishoni, qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi. Hamkor tashkilotlar vakillariga esdalik sovg'alar berildi.

**Podpolkovnik
Gulnora XODJAMURATOVA,
"Vatanparvar"**

Mardi maydonlar



KATTA YUTUQLAR,

Adashmasam, harbiysiz, shundaymi? Chunki qadam olishingizdan hammasi ko'rinib, bilinib turibdi-da: o'zingizni tutishingiz, gap-so'zlardagi dadillik, vaziyatni boshqarishdagi urinishlaringiz va albatta, o'rinli xulosalaringiz. Ha, yo'g'-e, avval harbiy libosda bo'lganmisiz? Demak, hozir rezervdasiz. Unda yaxshi. Yo'q, aytmochimanki, ko'ngilga yaqin kishilarni uchratib qolsam, hayotning muhim sirlarini anglagandek quvna ketaman. Qolaversa, bunday odamlar bilan suhbat mazmunli bo'ladi.

Darvoqe, xizmat qaysi okrugda bo'lgan edi? Rostdan ham Sharqiy harbiy okrugda pishdingizmi? Ana bo'lmasa. Uchrashuvimiz go'yoki avvaldan uyushtirilganga o'xshaydi-a, aka? Boisi kamina ham xuddi o'sha, sizni yetishtirgan hududdagi yigitlar bilan olib borilgan mashg'ulotlar haqida gurunglashmoqchi edim.



Bilasiz, ayni okrugda o'quvlar qishin-yozin birdek o'tkaziladi. Hammasida zamonaviy yondashuvlarga ahamiyat qaratiladi. Mashg'ulotlardagi vazifalar murakkabligi, takrorlanmasligi bilan ham o'g'lonlarni har tomonlama toblanishida ahamiyatli bo'lmoqda.

– Shaxsiy tarkibning mahoratli bo'lishida, qo'yilgan vazifalarni yuqori saviyada bajara olishida komandirning o'rni muhim hisoblanadi, – deydi kapitan Sanjarbek Hasanov. – Chunki yetakchi vaziyatni nazorat qilsa, natija kutilganidek bo'ladi. Ko'pincha vzvod tarkibida o'quvlardagi topshiriqlarni bajaramiz. Ana shunda aslida nimalarga qodirligimizni ham aniqlab olamiz-da. Chunki yutuqlar o'zimizniki, xatolar esa keyingi qadamlarni xavfga qo'yadi. Bu jihatlarni tahlil etish kerak, chuqur o'rganib borish lozim. Bilsangiz, komandirlik shaxsiy tarkibga buyruq berish va ularni shunchaki boshqarish emas, aksincha qo'l ostidagilar bilan birlashib, jiplashib ham o'zlashtirishda ko'rinadi. Yetakchi har bir harbiy xizmatchining mahoratini

yaqindan bilsa, keyingi harakatlarini oldindan ko'ra olsa, bu jamoa bilan, albatta, g'alabaga erishadi. Negaki bir tanadagi ikki qo'l baravariga nishonga zarba otsa, natija shunga yarasha bo'ladi. Yana bir narsa. Har qanday harakat oldindan chuqur o'ylangan taktikaning puxta tuzilganiga bog'liq. Men har bir – u hatto kichikroq o'quv bo'lsa-da, bor diqqatim va salohiyatimni safarbar etishga odatlanganman. Chunki katta yutuqlar kichik qadamlardan boshlanadi.

Ha, yetakchi yetaklashi kerak. Shunda ishonib topshirilgan shaxsiy tarkib g'alaba nashidasini tuyib xizmat qiladi.

Aka, ishonib, qo'shinlar tarkibidagi har bir komandirning maqsadi – bo'linmasidagi ilg'orlar safini yanada kengaytirishdan iborat. Kamina ularning ko'pini shaxsan taniydi. Shu o'tgan vaqt davomida qanchasi bilan suhbat qurmadim, deysiz. Yigitlarning har biri bildirilgan ishonchga munosib



KICHIK QADAMLARDAN BOSHLANADI

bo'lishga astoydil harakat qiladi. Masalan, hozir aytib berayotgan mashg'ulotlardagi o'g'lonlarni oling. Bu botirlar aytilgan nishonni bir nafasda yakson etadi. Ehtimol, o'zingiz ham shunday olg'ir bo'lgandirsiz, a? So'zlaringizga ishonmay o'libmanmi, albatta, inonaman. Faqat hozir jang olib borish strategiyasi ancha o'zgarganda. Hatto topshiriqlarni bajarishda ham tezkorlikka ahamiyat qaratiladi. Ayniqsa, bu vazifalarni kichik guruhlar tarkibida olib borish amaliyoti joriy etilgani sifat ko'lamini yanada o'rttirib yubordi. O'ylaymanki, gaplarimni to'liq anglab yetyapsiz.

Aytgancha, siz qaysi mutaxassislik bo'yicha ko'proq bilimga egasiz? Chunki avvallari harbiy xizmatchilar atigi bitta yo'nalishda o'qitilgan, ha, o'rgatilgan. Ammo bugun unday emas-da. Tizim butunlay yangilanib boryapti. Albatta, zamon shuni talab etayotgani ham rost. Biroq bu yangiliklar shunchaki joriy etilgani yo'q. Hammasi chuqur izlanish va o'rganishlarning yakuniy va yana ilmiy asoslariga tayanilgan. Hozir har bir yurt posboni o'z yo'nalishidan tashqari, boshqa mutaxassisliklardan ham xabardor etiladi. Yo'q, ular yuzaki, nomiga tayyorlanmayapti.

Aksincha, mahoratli soha vakillari tomonidan bilimlari ishonchli oshirilmoqda. Tasavvur qilyapsizmi? Masalan, merganni olaylik. U faqat ayni yo'nalishdagi sirlarni bilibgina cheklanmaydi. Balki imkoniyatlarini boshqa qurollardan ham nishonlarni yakson etishda oshirib boradi. Tog'da erkin harakatlanish ko'nikmasini yanada shakllantiradi. Bu degani yo'lda uchragan to'siqlarda ular aslo to'xtab qolmaydi.

– Hamma narsani bildim, degan kuningiz aslida hech narsani bilmagan kishiga aylanasiz, – deydi kichik serjant Jahongir Sharipov. – Shunday ekan, biz bugun xotirjam bo'lishga, kasbimizni chuqur o'rgandik deyishga, ishonimga, haqqimiz yo'q. Boisi o'rganganingiz sari sirlar eshigi ochilaveradi. Faqat buni anglay olish kerak. Aytmoqchimanki, qurolni birinchi safar 10 soniyada noto'liq qismlarga ajratsangiz, qayta-qayta urinishlar orqali bu ko'rsatkichni pasaytirib boraverasiz. Demak, hammasi ishtiyoqqa va o'zini ayni yo'nalishga bag'ishlashga bog'liq. Bugun guruhimiz bir musht bo'la olgan, deb bemalol ayta olaman. Albatta, bunga

erishayotgan natijalarimizni misol keltirishim mumkin. Biz o'quvlarda shunchaki qatnashmaymiz. Hammasini haqiqiy jang mezonlariga asoslangan holda olib boramiz. Bu esa safdoshlarimizning chiniqishiga, yanada intilishiga va mas'uliyatni chuqurroq his etishga o'rgatadi.

Topshiriqlarning kunduzgi va tungi sharoitlarda ado etish ko'rsatkichi bugun deyarli bir xil. Buning barchasi, avvalo, qilingan mehnat va yaratib berilgan sharoitlar mevasi.

Insonning qat'iyatli bo'lishi nimalarda ko'rinadi? O'zi, umuman, sizda shu jihat shakllanganmi?! Yo'q, gaplarimdan jahlingiz chiqmasin. Bilaman, siz ham o'sha muhim maktab – armiya saflarida toblandingiz. Kasbning mas'uliyatini boricha his etib, yashagan bo'lsangiz kerak. Xuddi bugungi o'g'lonlardek.

Bilsangiz, nishon markaziga o'qni joylashning ko'plab sirlari va usullari bor? Faqat buni hamma ham birdan bilolmaydi. Ana shunda ustozning o'gitlari qo'l keladi. Demak, ayni maktabda ta'lim olish kerak. Kaminaning gurungidagi qahramonlar – Sharqiy harbiy okrugdagi harbiy xizmatchilar bu an'anaga qattiq amal qilib keladi. Ular katta

tajribaga ega harbiy xizmatchilarning bilganlarini avval nazariy, so'ngra amaliy jihatdan qo'llab kelmoqda. Yigitlar maqsadlariga yetmaguncha – barcha turdagi qurollardan tezkor o'q otish ko'nikmasini yaxshi o'zlashtirmaguncha poligondan chiqmaydi. Aka, bu armiyadagi eng muhim qoida. Aytmoqchimanki, tartib va intizom. Bular haqida o'zingiz ham yaxshi bilasiz-ku, to'g'rimi? Shunchaki, yodingizga solyapman-da.

Ha, dala-o'quv maydoni kishidagi irodani yaxshi shakllantiradi. Hayotga real qarashga o'rgatadi. Qisqasi, matonat sari qadam-baqadam yurib boraverasiz. Yelkangizda Vatan sha'nini, xalq osoyishtaligini olganingiz esa hammasiga – yo'ldagi barcha to'siqlarda kuch berib turadi. Aslida ana shu his chin farzandlik burchidir.

Kapitan Shohrux SAIDOV,
“Vatanparvar”



Harbiy prokuratura – armiya prokuraturasi



VATAN HIMOYASI —

Vatan himoyasining asl mohiyati juda keng va chuqur mazmunga ega. U, eng avvalo, inson qadrini, huquq va erkinliklarini hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish, el-yurt tinchligi va xotirjamligini saqlash, qonun ustuvorligini va qonuniylikni ta'minlashni ham nazarda tutadi. Shu bilan birga, yosh avlod qalbiga sadoqat, burch va fidoyilik tuyg'ularini singdirish, ularni ona Vatanga muhabbat va mas'uliyat ruhida tarbiyalash ham Vatanni himoya qilish tushunchasi zahirida mujassam.

Ushbu sharaflil va mas'uliyatli yo'lda O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi Prezidentimizning 2022-yil 23-dekabrda farmoni asosida, Qurolli Kuchlarda qonun ustuvorligini ta'minlovchi, qonuniylikni mustahkamlovchi, harbiy xizmatchilarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi, eng asosiysi, "Inson qadri uchun" tamoyili va "Harbiy prokuratura – armiya prokuraturasi" shiori bilan faoliyat olib borayotgan zamonaviy institut sifatida namoyon bo'lmoqda.

Kezi kelganda e'tirof etish kerak, Yangi O'zbekistonda harbiy xizmatga bo'lgan munosabat mutlaqo o'zgardi. Bugun harbiy xizmatchi o'z xizmat burchi va majburiyatini ado etish bilan cheklanmayapti, balki u va oilasi jamiyat, davlat e'tibor markazidagi ijtimoiy qatlamga aylandi. Harbiylarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, qonun buzilishiga yo'l qo'ymaslik, harbiy intizomni mustahkamlash orqali Harbiy prokuratura mamlakat mudofaa salohiyatini yanada mustahkamlashga munosib hissa qo'shayotgani esa sohadagi har bir xodimni g'ururlantiradi.

Bugun odamlarning dard-u tashvishi bilan yashash, ularning og'irini yengil qilish va muammolarini aritish barcha davlat organlari, tashkilotlari va mansabdor shaxslarining kundalik asosiy vazifasi hisoblanadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tashabbusi bilan mamlakatimizning turli nuqtalarida tashkil etib kelinayotgan sayyor qabullarning ahamiyati katta bo'lmoqda. O'tgan 2025-yil davomida Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlarda sayyor qabullar o'tkazilib, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida qator amaliy ishlar qilindi. Bu kabi qabullarning aynan viloyat markazlaridan olis va chekka hududlarda o'tkazilayotgani esa adolat, teng huquq va teng imkoniyat tamoyillarini ta'minlash yo'lda ham muhim amaliyot bo'lib xizmat qildi.

Mana shunday sayyor qabullar, ularda ko'tarilgan **600 dan** ziyod murojaatning, jumladan harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari hayotida uchrayotgan **300 dan** ortiq

masalaning o'z vaqtida va joyida ijobiy hal etilishiga, o'z navbatida, huquqiy maslahatlar berilishiga, murojaatlar qog'ozda qolib ketmasdan, aniq yechim va natijaga erishilishiga zamin yaratdi.

Harbiy xizmatchi xizmat burchini bekor-u ko'st ado etishi uchun, avvalo, uning oilasi ijtimoiy jihatdan himoyalangan bo'lishi shart. Joylarda **160 dan** ziyod mehnat yarmakalarining o'tkazilishi ham aynan shu maqsadga qaratildi. Natijada harbiy xizmatchilarning qariyb **2 ming**

tibbiy ko'rikning tashkil etilgani sog'liqni saqlash, profilaktika, erta tashxis va ijtimoiy adolat nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etdi.

Bu tibbiy ko'riklarda **5 mingga** yaqin xotin-qiz va bolalar tor mutaxassisliklar bo'yicha malakali tibbiy mutaxassislar ko'rigida bo'lib, mobil laboratoriyalarda maxsus tekshiruvlardan o'tkazilgani ham harbiy oilalar salomatligiga davlat darajasidagi g'amxo'rlik va e'tiborning yorqin ifodasi, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Davlatimiz rahbarining 2025-yil 14-fevralda yoshlar bilan ochiq muloqot tarzida o'tkazgan videoselektordagi topshiriqlari ijrosi doirasida mazkur yo'nalishdagi sa'y-harakatlar yanada jadallashdi.

Chunonchi, umumiy o'rta ta'lim maktablarining chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilari uchun o'quvchi-yoshlar ishtirokidagi vatanparvarlik mashg'ulotlari va tadbirlarida foydalanishga mo'ljallangan, o'zida



nafar oila a'zosi ish bilan band bo'ldi. Shuningdek, muddatli harbiy xizmatni o'tab qaytgan yoshlar uchun tashkil etilgan **80 ga** yaqin mehnat yarmakasi va boshqa huquqiy-amaliy tadbir orqali **9 mingdan** ortiq fuqaroning ishli bo'lgani ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Olis hududlarda burchini bajarayotgan harbiy xizmatchilar rafiqalari va harbiy ayollarning butun fikr-u amali el-yurt xizmatiga kamarbastalikda bo'lib, Vatanimiz tinchligini barqaror saqlashga baxshida etgan bebaho vaqtlarini zamonaviy tibbiy maskanlarga borishdan ayashlari ham chinakam jasorat. Ularning bu fidoyiligini yuksak qadrlagan holda Harbiy prokuratura organlari tomonidan tibbiyot birlashmalari va harbiy gospital bilan hamkorlikda chekka hududlarda **30 dan** ortiq bepul chuqurlashtirilgan

Shuningdek, Harbiy prokuratura tashabbusi bilan Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, Qurolli Kuchlar vazirlik va idoralari hamkorligida olis hududlarda xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarning rafiqalari va o'sha hududdagi mahallalar ayollari ishtirokida o'tkazib kelinayotgan **"Yangi O'zbekistonning vatanparvar ayollari"** ko'rik-tanlovi sohadagi xotin-qizlarning bugungi ma'naviy va ijtimoiy faoliyatda faol fuqaro sifatidagi o'rnini yaqqol ko'rsatdi.

Yoshlar masalasi, ularning ta'lim va tarbiyasi bugun har qachongidan ham dolzarb. Ularni ona yurtga sadoqat ruhida kamolga yetkazish yo'lda ham Harbiy prokuratura organlari o'z hissasini qo'shib kelmoqda. O'tgan vaqt mobaynida yosh avlodning mamlakat taraqqiyoti uchun daxldorlik mas'uliyatini oshirish maqsadida turli tadbirlar, uchrashuvlar va musobaqalar o'tkazildi. Muloqotlarda yoshlarning qiziqishlari, orzu maqsadlari o'rganilib, ularga ham ma'naviy, ham hayotiy yo'l-yo'riqlar, amaliy ko'maklar berildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasining o'zida yil davomida mingdan ziyod maktab va harbiy akademik litsey o'quvchilari, oliy va harbiy ta'lim muassasalari talaba va kursantlari ishtirokida **20 dan** ortiq "Ochiq eshiklar kuni" tadbiri o'tkazildi. Bu kabi tadbirlar yoshlarda harbiylik va prokuratura xizmati haqida keng tasavvur va dunyoqarashni boyitgani, shubhasiz.

Vatanga sadoqat, buyuk ajdodlarimiz, jadid bobolarimiz, istiqloq ne'mati, Qurolli Kuchlar, harbiy xizmat, davlat ramzlari, kitob va ustozlarga hurmat kabi vatanparvarlikni tarannum etuvchi turkum mavzulardagi ma'ruza matnlaridan iborat **"Yangi O'zbekistonning vatanparvar yoshlari"** nomli elektron to'plam tayyorlandi.

Ushbu elektron to'plam Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi mas'ullari tomonidan o'rganib chiqilib, yoshlarni yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning vertikal tizimini yaratish borasidagi faoliyatda muhim amaliy tashabbus sifatida e'tirof etildi va 2025/2026-o'quv yilidan foydalanish uchun chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani mavjud **10 mingdan** ziyod ta'lim muassasasiga yuborildi.

Yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini yuksaltirish maqsadida jamiyat va davlat hayotidagi muhim sanalar munosabati bilan keng qamrovli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etildi. Xususan, 9-may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan "Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi yo'lidagi qahramonlik unutilmaydi" shiori ostida **400 ga** yaqin tadbir o'tkazildi. Urush va mehnat faxriylari, tinchlik yo'lda xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning oila a'zolarini yo'qlash va holidan xabar olishga qaratilgan tadbirlar tashkil etildi. Ta'lim muassasalarida esa **50 ga**



INSON QADRIDAN BOSHLANADI

yaqin muloqot va uch avlod uchrashuvi o'tkazildi, "Vatan himoyasida ajdodlarga munosib voris avlodmiz" mavzusida videoroliklar tayyorlanib, internet tarmoqlarida yoritildi.

Harbiy prokuratura tashabbusi bilan Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamkorligida 21-oktabr – O'zbek tili bayrami kuni munosabati bilan umumta'lim maktablarida ikki bosqichli diktant tanlovi tashkil etilganini tom ma'noda yosh avlodda vatanparvarlik va o'zbek tiliga hurmat tuyg'usini oshirishga qaratilgan ezgu harakatlar deyish mumkin. Unda davlatimiz rahbarining

va tayanchi sanaladi. Ular qalbida qonunga hurmat va Vatan taqdiriga daxldorlik hissi qanchalik mustahkam bo'lsa, mamlakat xavfsizligi shu qadar barqaror bo'ladi. Shu ma'noda, chegaraoldi mahallalarda yashovchi **50 mingdan ziyod** yosh qamrab olingan holda **500 dan** ortiq vatanparvarlik tadbiri o'tkazildi. Jarayonlarda arqon tortish, turnikda tortilish, armrestling, stol tennisi, kamondan va o'quv qurolidan otish, tosh ko'tarish, shaxmat-shashka, yugurish singari ommaviy sport turlari bo'yicha musobaqalar uyushtirilgani kelajagimiz egalari sog'lom, ongli, mas'uliyatli,



2024-yil 15-noyabrda qarori asosida, **208 ta** tuman (shahar)ning har birida bittadan tashkil etilgan "Jasorat sinfi" o'quvchilari ishtirok etdi.

Tuman bosqichida **5 mingdan** ortiq o'quvchi "Mardlik" mavzusida diktant yozdi. Ushbu bosqich g'olibi bo'lgan **208 nafar** o'quvchi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bosqichlarida "Ona Vatan" mavzusida bellashib, yakunda **42 nafar** g'olib va sovrindor munosib taqdirlandi.

Bundan tashqari, 18-noyabr – O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i qabul qilingan kun va 8-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni munosabati bilan **500 ga** yaqin ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etilib, tafsilotlari ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlari orqali keng yoritildi.

Kitob... U qalbni uyg'otish, aqlni charxlash va hayot mazmunini anglash uchun suv va havodek zarur. Shu nuqtayi nazardan barcha hududiy harbiy prokuraturalar tomonidan mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda **100 ga** yaqin kitob ko'rgazmasi tashkil etildi. Yoshlarda mustaqil fikrlash, bilimga qiziqish, intellektual raqobat muhitini shakllantirish maqsadida **85 marotaba** "Zakovat" intellektual o'yini o'tkazildi. Bu kabi tadbirlar yoshlarni turli salbiy ta'sirlardan himoya qiluvchi ma'naviy immunitet vazifasini o'tashi bilan ham alohida ahamiyatga ega.

Chegaraoldi mahallalarda yashovchi yoshlar davlat sarhadlarining ishonchi

sportga oshno, fidoyi fuqaro etib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Respublikamizdagi harbiy akademik litseylar va oliy harbiy ta'lim muassasalarida hamda olis hududlardagi maktablarda o'tkazilgan **1 200 dan** ortiq "Prokurorlik soati" mashg'ulotida ishtirok etgan qariyb **52 ming** nafar o'quvchi va kursant e'tiboriga vatanparvarlik, burch va javobgarlik



hissi, Konstitutsiyamiz va qonunlarning mazmun-mohiyati yetkazildi.

Harbiy prokuror va yoshlar uchrashuvlari esa **30 mingdan** ziyod yigit-qiz bilan ochiq muloqot maydoniga aylandi, **227 marotaba** tashkil etilgan bu kabi suhbatlar orqali yoshlar o'zlarini qiziqtirgan savollarga atroficha javob oldi, qonun ustuvorligi



va el-yurt xizmatida shay turish jamiyat barqarorligining poydevori ekanini chuqur anglab yetdi.

Vatanparvarlik tadbirlarini o'quvchi-qizlar o'rtasida o'tkazishga ham alohida e'tibor qaratilib, Harbiy prokuratura tashabbusi bilan olis va chegaraoldi hududlardagi maktablarda "**Men vatanparvarman**" loyihasi doirasidagi tadbirlar muntazam o'tkazib kelinmoqda. Badiiy sahna ko'rinishlari, ko'rgazmali chiqishlar, "Vatanparvarlik mening tasavvurimda" nomli erkin mavzuda tasviriy san'at, qo'l mehnati, she'rxonlik, jonli ijro, raqs, tikuvchilik, pazandalik kabi qator shartlar orqali qizlarimizning Vatanga muhabbat, buyuk ajdodlarimiz, jadidlar, tinchlik qadri, huquqbuzarlikka qarshi kurashish, favqulodda holatlarda harakatlanish tartibi, yoshlarga oid islohotlar va boshqa yo'nalishlardagi bilimlari baholanib, munosib taqdirlab borilmoqda.

Joriy "Vatanparvarlik oyli"da O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi xodimining "Vatan" va "Milliy armiyam" she'rlari asosida

raqamli transformatsiya jarayonlari boshqaruvni zamonaviylashtirib, harbiy xizmatchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini davlat e'tibori markaziga olib chiqdi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Harbiy prokuratura tomonidan joriy etilgan "**Qurulli Kuchlarda ijtimoiy himoya**" yagona elektron platformasi harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari uchun ishonchli manbaga aylandi. Platformadagi birgina "Uy-joy ta'minoti" moduli orqali uy-joyga ehtiyojmandlar navbati va imtiyozli ipoteka krediti ajratish jarayoni ilk bor inson omilidan xoli, shaffof va adolatli tizimga o'tdi. Bu o'zgarishlar harbiy xizmatchilarning qonuniy manfaatlarini davlat tomonidan ishonchli himoya qilinayotganining yana bir amaliy isbotidir.

Mazkur islohotlar tasodifiy emas – ular harbiy xizmatga bo'lgan ishonchni mustahkamlab, sadoqat va mas'uliyatni rag'batlantirishga qaratilgan. 2025-yil 17-noyabrda imzolangan qo'shma qaror va tasdiqlangan nizom esa ushbu tizimning mustahkam huquqiy poydevorini yaratdi, barcha kuch tuzilmalarida yagona standartni ta'minladi. Natijada harbiy sohada adolat, ochiqlik va inson manfaati ustuvor bo'lgan yangi raqamli muhit shakllandi.

Muxtasar aytganda, amalga oshirilayotgan kompleks islohotlar – huquqiy himoya, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya va raqamli transformatsiya uyg'unligi – inson qadri, oila farovonligi va yurtimiz tinchligini ta'minlashga qaratilgan xalqchil va izchil davlat siyosatining hayotiy ifodasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Albatta, bu borada harbiy prokuratura organlarining ham hissasi borligi barchamizga cheksiz mamnuniyat bag'ishlaydi va kelgusi marralar sari ruhlantiradi. Shuning barobarida Prezidentimizning 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida belgilangan ustuvor yo'nalishlar va vazifalar har birimizning zimmamizga ulkan mas'uliyat yuklaydi.

So'zim yakunida fursatdan foydalanib, barcha harbiy xizmatchilarni va faxriylarimizni 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni va ushbu shonli sananing 34 yilligi bilan chin dildan muborakbod etaman!

Vatanimiz tinchligi va ravnaqini barqaror ta'minlash yo'lidagi mas'uliyatli va sharaflil xizmatlaringizda Sizlarga mustahkam sog'liq, omad va bardavom zafarlar tilab qolaman!

Adliya polkovnigi
Otabek XOLBOYEV,
Bosh prokuror o'rinbosari –
O'zbekiston Respublikasi
Harbiy prokurori



YAQIN TARIX SUHBATLARI

Gazetamizning 1993-yilgi sonlaridan birida eʼlon qilingan ushbu suhbatda mustaqil Oʻzbekiston Qurolli Kuchlari shakllanayotgan ilk yillarda ofitserlar oldida turgan ogʻriqli “Qolish yoki ketish?” savoliga jonli va samimiy javob bor. Ittifoq parchalanganidan keyin yuzlab, minglab harbiy xizmatchilar uchun xizmat joyini tanlash faqat kasbiy emas, balki oilaviy, ijtimoiy va maʼnaviy masalaga aylangan edi.

Mayor A. Nikishin bilan suhbat orqali oʻsha davrdagi holat – uy-joy muammosi, xizmat istiqboli, pensiya taʼminoti, qasamyodga sodiqlik, millatlararo munosabatlar kabi masalalar ochiq-oydin bayon etilgan. Ayniqsa, mustaqil davlat Qurolli Kuchlarida xizmat qilish maʼnaviy jihatdan toʻgʻrimi, degan savolga berilgan javoblar bugun ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan.

Bugun Oʻzbekiston armiyasi milliy professional kadrlarga tayanadigan, koʻp millatli va barqaror tizimga aylangan bir paytda ushbu maqola oʻtmishda qabul qilingan qarorlarni, ularning inson taqdiriga qanday taʼsir koʻrsatganini anglash uchun muhim tarixiy manba hisoblanadi.

“XIZMAT QILISH UCHUN O‘ZBEKISTONDA QOLAMAN!”

Havo hujumidan mudofaa boʻlinmalaridan birining komandiri mayor A. Nikishin bilan suhbat.

“Vatanparvar”ning 60-soni, 1993-yil 10-aprel.
Suhbatni podpolkovnik A. Krauze yozib olgan.

Qayerda xizmat qilish kerak? Sobiq Ittifoq tarqalib ketganidan soʻng sobiq respublikalar suverenitet eʼlon qilganidan keyin oʻz tarixiy Vatanidan tashqarida qolgan, u yoki bu mustaqil davlatning Qurolli Kuchlari vakili boʻlgan har bir ofitser va praporshik bu savolni oʻziga berdi. Chunki bu masala har bir harbiy xizmatchi va uning oilasi taqdiriga tegishli edi. Xoʻsh, sobiq Ittifoq tarqalganidan soʻng Oʻzbekiston hududida xizmat qilgan harbiylar bu savolga qanday javob berdi?

– Aleksandr Viktorovich, keling, suhbatimizni eng muhimidan boshlaymiz. Baʼzi ofitserlar oʻz yurtiga ketmoqda, ammo koʻpchiligi qolmoqda. Siz shaxsan nima qilmoqchisiz?

– Shaxsan men Oʻzbekistonda xizmat qilish uchun qolyapman. Buning sababini birdaniga tushuntirish qiyin. Ammo aytishga harakat qilaman. Rossiyaga, demak, Uzoq Sharq yoki Sibirga ketishni taklif qilishlari mumkin, ammo turmush oʻrtogʻimga u yerlarning iqlimi toʻgʻri kelmaydi, chunki u koʻp kasal boʻladi. Qizim ham xuddi shunday... Rosa oʻylandik. Ketsag-u, darhol ortga qaytamizmi yana? Yoʻoʻq... Bu qarorga kelishimda turarjoy masalasi ham muhim rol oʻynadi. Yana qayergaligi nomaʼlum, har xil “nuqtalar” boʻyicha sargardon boʻlish – yoʻq, buning bizga keragi yoʻq. Turmush oʻrtogʻim ham, bolalarim ham bundan rosa charchagan. Shuning uchun ham xizmatni shu yerda davom ettirishga qaror qildik.

Turmush oʻrtogʻim ham oʻz ishini yoʻqotishni xohlamaydi va u haq. Necha yillar mobaynida u ishdan bu ishga oʻtib yurdi. Baʼzi vaqtlarda umuman ish topa olmadi. Bu yerda esa koʻnglidagi ishini topdi (*oʻrta maktabda oʻqituvchi boʻlib ishlaydi*), ishlaydigan jamoasi juda yaxshi, uni hurmat qilishadi.

– Siz boshqa joyda yaxshi xizmat joyi boʻlishiga shubhalanasizmi?

– Ha, aynan shunday. Yaqinda Minskdan podpolkovnik Pinchuk qoʻngʻiroq qildi. U yerda uni tegishli lavozimga qoʻyishmagan, turarjoyi yoʻq, oilasi, ota-onasi bilan birgalikda ikki xonali kvartirada siqilib yashashayotgan ekan. Buning ustiga uning oldida hech qanday istiqbol, kelajak yoʻq. Oʻylab koʻring-a, xizmatning oxirgi yillarida uysiz, ishsiz qolish...

– Minsk, Belarus deysiz, siz rossiyaliksiz-kuʻ?

– U yerda ham xuddi shunday. Yozda uyga borgan edim, harbiy qismlardan biriga kirdim. Boʻsh oʻrin yoʻq, ular oʻz ofitserlarini qayerga yuborishni bilmayapti. Buning ustiga shtatlar qisqarishi arafasida ekan.

– Yaxshi, ammo sizni Oʻzbekistonda qanday kelajak kutmoqda, deb oʻylaysiz?

– Birinchidan, ish va uy-joy bilan taʼminlanganman. Ikkinchidan, yaqinda Rossiya va Oʻzbekiston oʻrtasida imzolangan bitimga koʻra, ofitser zaxiraga boʻshatilganidan soʻng taqdir hukmiga tashlab qoʻyilmasligi belgilangan va bu holat meni juda ham xursand qildi.

– Yaʼni xizmatni tugatganidan soʻng harbiy xizmatchiga oʻz Vataniga qaytish, u yerda unga uy-joy va pensiya taʼminoti berilishi kafolatlanadi. Siz shuni nazarda tutyapsizmi?

– Ha, bu juda muhim. Aynan ana shu hujjat koʻpchilik ofitserlarning Oʻzbekistondan ketishini toʻxtatdi.

– Bunga boʻlinmangizdan misol keltirish mumkinmi?

– Marhamat, mayor Pikarskiy, mayor Shalkovskiy – ikkovi ham ketmoqchi edi, ammo tugʻilgan yurtiga borib kelib, bu qarordan qaytdi. U yerda ularga aniq-tiniq qilib, yil davomida mos keluvchi lavozim topilmasa, boʻshatilasiz, deyishibdi. 17, 18 yil xizmat qilib qoʻyganidan soʻng pensiyaga chiqish imkoniyatini va uy-joyini yoʻqotish kimga yoqadi. Chunki xizmat qilayotganlar uchun uy-joy olish oson emas, zaxiradagilar uchun esa bu umuman umidsiz ish. 40, 45 yoshga kirganda, ishsiz, pensiyasiz, uy-joysiz qolish...

– Baribir baʼzi ofitserlar ketmoqda-kuʻ?

– Ha. Asosan, yoshlar ketmoqda. Bizda ham bundaylardan ikki kishi bor. Boshqa boʻlinmalar bilan taqqoslaganda bu juda kam. Ketayotganlarning baʼzilari ish, uy-joy topmoqda, boshqalari esa ish topa olmasdan, armiya bilan xayrlashmoqda. Oʻzim ham oʻylab koʻrdim. Men qishloq xoʻjaligida yoki ishlab chiqarishda ishlashim mumkin, ammo baribir koʻnglim armiyaga tortaveradi, chunki hayotimning anchagina qismi unga berilgan.

Kech boʻlganida rosa horib, charchab xizmatdan uyga qaytasan. U yoq-bu yoqlarga borging keladi, qariyalarga yordam berishni xohlaysan. Taʼtil vaqtida esa bir ikki hafta oʻtmasidan yana xizmatga tortayotganini sezasan. Boshqalarda qandayligini bilmayman-u, ammo menimcha 10 yil va undan ortiqroq xizmat qilganlarda shunday boʻlsa kerak.

– Yaʼni ular armiyaga bogʻlanib qolgan demoqchimisiz?

– Aynan shunday. Oʻzingni boshqa sifatda tasavvur ham qilolmayсан, aks holda hayoting mazmuni yoʻqoladi. Bu ham boshqa yoqqa ketishni xohlamasligimning sabablariidan yana biri, chunki “bort”dan tashqarida qolib ketish mumkin.

– Agar eʼtiroz bildirmasangiz, keling, endi nozik mavzuga oʻtamiz. Sobiq Sovet armiyasining ofitseri yaqindagina paydo boʻlgan mustaqil davlatlarning biriga qarashli Qurolli Kuchlar safida xizmat qilsa, maʼnaviy jihatdan toʻgʻrimi? Yaqinda “Tema” nomli koʻrsatuvida Kavkaz ortida xizmat qilayotgan uchuvchi – slavyanga sotqin degan nom berildi. Bunga butun zal hayron boʻlib qoldi. Bu haqda siz nima deb oʻylaysiz?

– Men qasamyod qabul qilayotganimda butun Sovet Ittifoqiga – Rossiyaga emas, Ukrainaga emas, Qozogʻiston yoki Oʻzbekistonga emas, balki sobiq davlatning butun xalqiga qasamyod qilganman. Va agar men, slavyanin, qachonlardir meni yuborishgan joyda, yaʼni Oʻzbekistonda xizmat qilayotgan boʻlsam, demak, mening vijdonim toza, hech qanday gunoh qilmayapman...

– Shaxsan oʻzingiz-chi?

– Yoʻq. Fikrimcha, Oʻzbekiston Respublikasi hukumati bu yerda xizmat qilayotgan ofitserlarni qaytadan Harbiy qasamyod qabul qilishdan xalos etib, juda toʻgʻri yoʻl tutdi. Bu siyosiy jihatdan

katta “plyus” boʻlib, koʻplab ofitserlarning Oʻzbekistonda xizmat qilish uchun qolishida muhim rol oʻynadi.

– Koʻrib turganingizdek, biz uy-joy, pensiya taʼminotidan boshlab, maʼnaviy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy muammolarga ham yetib keldik. Bu haqda esa xohlaydimi-yoʻqmi, har bir ofitser, albatta oʻylaydi. Shunday ekan, ofitser uchun, shu jumladan siz uchun nima birlamchi: moddiyat – uy-joy, pensiya, oilaviy farovonlikmi yoki maʼnaviyat – shaxsiy eʼtiqod, burchga, harbiy qasamyodga sodiqlikmi? Boshqacha aytganda, hozir siz eʼtiqodingiz boʻyicha harbiy xizmatchimisiz yoki zarurat sabablimi?

– Garchi Ittifoq yagona armiyaning tarqalishi sababli yuksak maʼnoli tushunchalar qandaydir jihatdan ahamiyatini yoʻqotgan boʻlsa-da, bu men yoki boshqa ofitserlar bir boʻlak non uchun xizmat qilayotganimizni bildirmaydi. Agar aytaylik, davlat tomonidan olib borilayotgan siyosat mening qarashlarimga toʻgʻri kelmasa, biron narsa, yaʼni uy-joy yoki ish haqi meni bu yerda xizmat qilishga majbur etolmasdi. Oʻylab oʻtirmasdan, ketgan boʻlardim.

– Siz bilan biz, Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilari hisoblanamiz. Men Ukrainalik, siz Rossiyaliksiz. Siz bunga bogʻliq holda qandaydir noqulaylik, bosimni his qilmayapsizmi?

– Yoʻq. His qilmayapman, ishda ham, yashash joyimda ham. Formada yuramanmi yoki fuqaro kiyimidami hech qanday muammo yoʻq. Xizmat boʻyicha koʻtarilish masalasiga kelsak ham xuddi shunday: hozirgi lavozimimga ham Oʻzbekiston Respublikasi mudofaa vazirining buyrugʻi bilan tayinlanganman. Qisqacha aytganda, kim vijdonan xizmat qilsa, albatta koʻzga tushadi, yuqori lavozimga koʻtariladi – uning millatidan qatʼi nazar. Men bunga koʻp bora guvoh boʻldim.

– Ilgari Sovet Ittifoqiga, endi Oʻzbekiston Respublikasiga xizmat qilyapsiz. Ofitser qalbi oʻz ishi uchun avvalgidek intilmoqdam?

– Boshqalar uchun bilmayman, lekin oʻzim uchun javob beraman. Hech qanday farqni koʻrmayapman. Bunda hamma narsa insonning ichki mohiyatiga, uning tarbiyasiga bogʻliq.

– Chaqiriluvchilar kontingentida oʻzgarish bormi? Odamlar bilan ishlashda qiyinchiliklarga duch kelyapsizmi?

– Ilgari boʻlinmamizga yigitlar texnikumlar, institutlardan kelishardi. Ularni murakkab mutaxassisliklar – radiotelegrafchi, planshetchi, diktor, hisoblovchi va boshqa kasblarga oʻrgatish ancha oson edi. Hozir esa koʻproq oʻrta maktabning bitiruvchilari kelmoqda. Farq yaxshigina seziladi.

– Bu ofitserlarga qanday taʼsir oʻtkazmoqda. Bu holatdan qanday chiqish mumkin? Axir jangovar navbatchilikni olib borish borasidagi vazifalar avvalgidek qolgan-ku.

– Ikkilanayotganimiz yoʻq, har birining shaxsiy xususiyatlaridan kelib

chiqqan holda ularni saralab, turli mutaxassisliklarga oʻrgatyapmiz. Til borasidagi toʻsiqni yengib oʻtish uchun ofitserlarimiz oʻzbek tilini oʻrganishni boshladi. Bundan tashqari, telegrafchi, radiotelegrafchi va boshqa bir qator yoʻnalishlarga rus, koreys, oʻzbek ayollarini tanlab oldik.

– Qoʻllaridan kelyaptimi?

– Yomon emas. Ularning barchasi aloqa texnikumlari va institutlaridan keyin tayyor mutaxassis sifatida kelgan.

– Praporshiklar kamayib ketmadimi?

– Yoʻq. Hech kim boʻshash niyatida emas.

Vijdonan xizmat qilmoqda. Ulardan biri – praporshik Aleksandr Nikolayevich Jukovga vzvodni boshqarish ishonib topshirildi.

– Sizning fikringizcha, mahalliy hokimiyat, aholi bilan doʻstona aloqalar oʻzgarmadimi?

– Yoʻq. Hatto baʼzi jihatdan yanada yaxshilandi, balki bunga Oʻzbekistonning oʻz Qurolli Kuchlari tashkil etilgani sabab boʻlgandir. Ayniqsa, keksalar tomonidan boʻlayotgan munosabatda bu juda yaxshi seziladi. Ular qoʻllab-quvvatlashga doimo tayyor. Masalan, ota-onalar bilan ularning oʻgʻli toʻgʻrisida suhbatlashdngiz – qarabsizki, askar oʻzgardi, uning xizmatga boʻlgan munosabati ham oʻzgacha tus oldi. Bu esa oʻzingizga boʻlgan ishonchni orttiradi, sizni yanada ruhlantiradi.

– Siz oʻzingizni Oʻzbekiston Respublikasiga milliy harbiy kadrlar tayyorlashda yordam berayotgan ofitser sifatida his qilaysizmi?

– Albatta, yordam beryapman. Gap kelganda, shuni ham aytish kerakki, birga xizmat qilayotgan oʻzbek ofitserlaridan hech qachon “Nega bu yerda oʻzingni katta tutyapsan, buyruq beryapsan, bu sening emas, bizning yerimiz” degan gaplarni eshitmaganman. Nafaqat gap, bunday fikrning oʻzi yoʻq ularda. Aqlli yigitlar yigʻilgan, ularga hech qanday eʼtirozim yoʻq. Bunday yigitlar bilan xizmat qilish juda ham yoqimli.

– Qisqa savollar bermoqchiman. Aytaylik, oldingizga qoʻl ostingizdagi ofitser kelib, masalan, Rossiyaga ketishga ruxsat berishingizni soʻrayapti. Qanday maslahat berardingiz?

– Yaxshilab oʻylab koʻr, degan boʻlardim. U yogʻiga oʻzi qanday hal qilsa, shunday boʻladi. Uni olib qolishga harakat qilmasdim.

– Sizning fikringizcha, ofitserning xizmat joyini tanlashi masalasida bevosita harbiy emas, balki ijtimoiy-siyosiy muammolarga koʻproq eʼtibor qaratib toʻgʻri ish qildikmi?

– Boshqacha boʻlishi ham mumkin emas. Hozirgi davrda hayot va siyosat bir-biri bilan shunday bogʻlanib ketganki, bundan hech qayoqqa qocholmayсан.

– Aleksandr Viktorovich, siz avvaliga qandaydir targʻibot qoʻgʻirchogʻi qilib qoʻymasliklari uchun biz bilan uchrashishni rad qilgan edingiz. Endi uchrashuvimiz boʻlib oʻtganiga afsuslanmayapsizmi?

– Afsuslanayotganim yoʻq, chunki siz bilan oʻz uyidan uzoqda xizmat qilayotgan barcha ofitserlarni hayajonlantiruvchi masalalar haqida suhbat qurdik.

Qahramonlar nomi barhayot

“AJDODLAR MARDONA RUHI SENGGA YOR”

“Ajdodlar mardona ruhi senga yor”. Ikki-uch kundirki, tilimda shu jumla aylanib yuribdi. O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning qalamiga mansub bu she'rda qo'llangan misra har bir insonni uyg'onishga, Vatanni sevib, asrashga chorlaydi. Men esa bu misraning yana bir tomonini o'zim uchun kashf etgandek bo'ldim.

Yurt osoyishtaligi yo'lida jonfido etgan har bir ajdodimiz, u askardir, shoirdir, olimdir – qaysi jabhada yuz ko'rsatmasin, Vatanning har qarich yeriga daxldorligini his etib turmog'i lozim. Kimdir Vatanining urf-odati, tilini asrasa, kimdir qo'lga qurol olib, yurtni yomon ko'zlardan saqlaydi. Mening xayolimdan o'tgani esa ko'zlarini olis ufqlarga tikkan, uzoq marallarni ko'zlagan yosh harbiy yigitlarimizga qarata, Vatan tinchligi yo'lida halok bo'lgan qahramonlarimizning yurak zoriga o'xshaydi, bu misra go'yo.

“Ajdodlar mardona ruhi senga yor”.

Men olis osmonda yulduzlar emas, Mardlarning ruhiga termilib yotdim.

Birining kuragi gullagan eman, Birining ko'ksida Vatan bayrog'i.

Yulduzlar jilmayar, o'ynaydi sabo, Tog'larning ko'ksida umidlar otar. Bir ma'sum qo'shiqni

kuylaydi samo,

“Ajdodlar mardona ruhi senga yor”.

2025-yil sarhisobini varaqlaydigan bo'lsam, yuragimga yodini abadiyga yozgan qahramon yigitlar nomi qad rostlaydi. 2000-yili Sariosiyo voqealarida halok bo'lgan yigitlarning jasorati har qancha yod etilsa, kuylansa arziydi.

Ulardan ikki mard yigit haqida bugun ham biroz to'xtalmoqchiman. Ma'ruf Rajabov, Shermuhammad Ashirov xalqning chinakam qahramonlari. Ular haqida bir nechta qoralamalar yozdim. Qayg'usiga sherik bo'ldim, yig'ladim. Ijodkorning qo'lidan bundan ortiq nima ham keladi, deysiz. Imkoni bo'lganda-ku, har biri uchun ko'ksingni dushman o'qiga tutib bersang, arziydi.

Dunyo nimani bo'lisha olmaydi, deyman ba'zida. Bir burda non bilan to'yadigan qoringa butun bir borliqni sig'dirmoqchi bo'lishadi. O'lponi esa insonning joni bilan to'lanadi.

Toshkentdan Qashqadaryoga kelishda Samarqand viloyatining Bulung'ur tumaniga tegishli ko'chalardan biriga kiraverishda yo'l chetida o'rnatilgan peshtaxtada yozilgan bitiklar doim xayolimni olardi: **“Bu ko'cha yurtimiz sarhadlari daxlsizligi va xalqimiz osoyishtaligini ta'minlash yo'lida jonini fido qilgan mard va jasur Vatan himoyachisi, “Jasorat” medali sohibi katta serjant Ma'ruf Rajabov nomi bilan ataladi”.**

Bu so'zlar yuragi bor har qanday insonning ko'nglida, Vatan ozodligi, tinchligi qanchalar qimmatli ekanini anglashga undaydi. Bu safar peshtaxta oldidan shunchaki o'tib ketolmadim.

Suratda muhrlanib qolgan o'tkir nigohlar nimalarnidir so'zlardi. Bus-butun jasoratdan iborat bo'lgan bu yigitning taqdiri, hayoti meni judayam qiziqitirdi. Yuragimni timdalab turgan tushuniksiz tuyg'ularga, balki shu yo'sin taskin berarman, degan xayolda qahramonimiz yashagan xonadonga yo'l oldim. Ostonada xokisor bir onaxon kutib oldi.

– Keling, bolam, sizga qanday yordamim tegadi? O'g'lim uyda yo'q edi. Kelishimning muddaosini tushuntirdim. Ko'zlarimga siniq nigohda termildi-da, uyiga taklif qildi.

Onaizor shunday hikoya qildi:

– Ma'rufjonni boshqacha yaxshi ko'rar edim, ko'zlari tip-tiniq, tabassumidan ko'nglim yorishardi. Aslida bir farzandni ikkinchisidan ajratib bo'lmaydi, lekin u boshqacha edi. Boshqa bolalarga o'xshamas, go'yo hayotni ertaroq tushunib yetgan-u, bizning ko'nglimizga qarab yashayotgandek edi. Tabiatni sevar, borliq bilan tillashardi. Bir necha bor kuzatganman, yaproqlarga quloq tutgancha ularga nimalardir pichirlayotganini. “Hoy bola, kimga gapiryapsan?” desam, cho'chib ketardi. “Jim!” deb imo qilardi. “Har maysa, har yaproq bir hikmat so'zlarkan, ona, ularning tili, vazifalari bor ekan, kitobdan o'qidim. Katta bo'lsam, hammasining tilini o'rganaman. Ularning dardlariga quloq solaman. Keyin gullar so'lib qolmaydi, daraxtlar qurib qolmaydi, ona”, degan edi bir safar. Uning balog'at bilan so'zlashidan hamma hayratda qolardi. Na yoshlik kezlari, na yigitlik chog'i bo'lsin, ortidan yomon gap eshitmadim. Maktabdan doim menga maqto'v olib kelardi. Qo'ni-qo'shnilar ham og'zidan bol tomib maqtardi. Ko'z tegdimi, bilmadim...

Ma'rufjonda harbiylikdan ko'ra, ijodkorlikka muhabbati kuchliroq deb o'ylaganman, avvalboshda. Katta o'g'lim harbiy bilim yurtiga o'qishga kirganidan so'ng qiziqib ketdi, chamamda. Akasi uyga keldi deguncha, kiyimlarini katta qilib kiyib olardi, qo'llarini boshiga qo'yib, **“Vatanimga xizmat qilaman, Vatanimga xizmat qilaman!”** deya zavqqa to'lib yugurib yurardi. Bolam maktabni a'lo baholarga tugatgandan so'ng Samarqanddagi Pedagogika va jismoniy tarbiya bilim yurtiga o'qishga kirdi. U dargohda ham ustozlar e'tiborida bo'ldi, bir necha bor tashakkurnomalar olgan oliygoh ma'muriyatidan.

Bir kuni ufqning ko'zlarini qizarib, quyoshning tafti so'nib, kunbotar mahallar so'riga joy tashlab, otasiga choy damlab turgandim, Ma'rufjon kelib qoldi. “Onang o'rgilsin, kel, bolam!” deb qosh-ko'zlaridan o'pdim. Qarasam, sochlari

olingan, “Ha, bolam, askarlardek bo'lib olibsan”. “Men ketyapman”. “Qayoqqa, bolam?” deb so'rasam, yuragim dukullab, harbiy xizmatga ekanini aytdi. O'qishing bor-ku, bolam, desam, qaytib kelib bitiraman deydi. Keyin bilsam, o'zi da'vogar bo'lib, Vatanimga xizmat qilay, deb ariza yozib ketgan ekan. Tongda uyg'onib, otasidan, mendan duo oldi, kuzatgani chiqaylik, desam, unamadi. Kunim qursin, shu ketishda qaytib kelmadi.

Onaxon jim qoladi, shu yerda. Na men qolgan tafsilotlar haqida so'ray olaman, na onaxonning o'zi aytib beradi, ko'zlaridan oqayotgan yosh Ma'rufjonning suratiga chakillab tomib turibdi. Suratni bag'riga bosgancha “Qahramon bolam!” deb oh-u fig'onidan yer-u samo larzaga keladi. Boshqa gapirolmaydi.

Bu suhbatlardan hali-hamon o'zimga kelolmayman. Ko'zlarim oldida Ma'ruf Rajabov jonlanaveradi.

Xuddi shunday suhbatlardan yana biri Shermuhammad Ashirovning validasi bilan ham kechgandi.

Ish yuzasidan Yangiyo'l shahriga muxbir bo'lib boradigan bo'ldim. Bahor nafasi hamma yerni yashillikka burkagan, daraxtlar tizilishib, yangi olgan ko'ylagini ko'z-ko'z qilayayotgan qizlardek tovlanib turibdi. Ayniqsa, bunday paytlar mashina oynasidan atrofini kuzatib ketish o'zgacha zavq beradi odamga. Osmonga sochib yuborilgan paxta bo'laklaridek bulutlar, har joy – har joyda samo uzra yastanib yotib olgan-u, yerni tomosha qilib turganga o'xshaydi.

Kun yarmiga yetganda Shermuhammad Ashirov xonadoniga yetib keldik. Hovlida gilolar shoxlarini ko'tarolmay hosilga kirgan, ishkonga tarab qo'yilgan uzum novdasidagi barglar ko'nglingizga o'zgacha halovat beradi. Xonadonda o'zgacha ruh bor edi. Bizni yoshlari saksondan oshgan onaxon kutib oldi:

– Kelinglar, bolajonlarim, bolajonlarimning do'stlari, kelinglar! Hammamizni bag'riga bosib ko'rishadi.

– Sog'-omonmisizlar, oilalaring tinchmi, aylanay o'zim, sizlardan, – deya ko'zlarida yosh aylanadi. Salom-alikdan so'ng hamkasb do'stim onaxonni gapga tutadi.

– Onajon, Shermuhammad akamning bolaligi haqida gapirib bering.

– Onajoning aylansin-a, bolam! – deb so'z boshlaydi Munisaxon aya.

– Dunyo bag'ritoshlik qildi, bolam, bolajonim ayni yigit yoshida bu olamni tark edi. Shermuhammadim judayam quvnoq, shirinso'z bola edi, agar nimadandir kayfiyatim yo'q bo'lib tursa ham, bolamning tabassumini ko'rishim bilan ko'nglim yorishardi. Kenjatoyimning yurishiga ham, kiyinishiga ham hamma havas qilardi. Uyimizdan do'stlari arimasdi. U bolaligida uchuvchi kiyimini kiyib suratga tushgan. Onaxon suratni topib, bizga ham ko'rsatdi.

– Uchuvchi bo'lish istagi bolaginam yuragida ana shunda paydo bo'lgan deb o'ylayman. Ulg'aygach, shu yo'lni tanlab yurtimizga xizmat qildi. Aslida rahmatli dadasi uchuvchi bo'lishni orzu qilgan ekan. Shuning uchun o'g'limga faqat yordam berdi. Qo'llab-quvvatladi.

So'zining yarmida farzandi yodiga tushib ketdimi, onaxonning gapi og'zida qoladi, ko'zlari jiqqa yosh bo'lib, o'zini zo'rg'a tutib davom etadi.

– Bir kuni hech uyqum kelmadi, u tomonga yonboshlayman, bu tomonga yonboshlayman, yaxshi narsalar haqida o'ylayman, ichimda duolar qaytarib yotaman, hech uyqum kelavermaydi, ko'nglimni boshqacha qo'rquv egallab olgan, atrof suv quygandek jimjit, tun qorong'isi esa qo'rquvimni battar oshiradi. Bir payt ko'zim ilingan ekan, “Shermuhammad!” deb baqirib yubordim. Nimaga? Nima uchun? Bilmayman. Shunda o'g'limning joni uzilgan ekan, ertasiga bildim buni...

Ko'zlarida yosh bilan bir nuqtaga termilib qoladi Munisaxon aya.

O'ziga kelib olgach, yana so'z boshlaydi:

– Er yigit elning bolasi-da, tinchlik va osoyishtalikni shular saqlayapti-da... O'g'limdan mingdan ming roziman, umri qisqa bo'lsayam, chaqmoqdek yashadi, tinim nima bilmadi. Haligacha do'stlari, safdosh o'rtoqlari kelib turadi. Qanday xizmat qilganini, mendan yiroqda bo'lganida nimalar qilganini shular gapirib berishadi, – deb so'zini yakunlaydi, onaizor.

Muhammadali G'AFFOROV, “Vatanparvar”



Zaxiradagi jangchi

SAMODA

ICHILGAN QASAM

- Xato qilma!
- Himoya qil!
- Qasamingni unutma!
- Osmonni tashlab ketma!

Harbiy uchuvchilarning faoliyati ana shunday qisqa buyruqlar va talablar bilan boshlanib, to vazifa tamomlangunga qadar davom etadi. Bu kasbda har bir parvoz qaror, har bir soniya javobgarlik, har bir buyruq hayot bilan o'lgan burchdir.

Osmonda bahona yo'q, ikkinchi imkoniyat ham. Shuning uchun uchuvchi nafaqat texnikaga, balki vijdoni, qasami va Vatan ishonchiga tayanadi. Chunki harbiy uchuvchi uchun osmon ish joyi emas, u himoya qilinadigan muqaddas sarhaddir.

Ha, samo o'z qonuniga ega maydon. Unda xasdek xato ham kechirilmaydi, qo'rquvga joy yo'q, kuchsizlar esa shu zahotiyoq ortda qoladi. Bugun ana shu shafqatsiz balandliklarda yillar davomida xizmat qilib, havo hududining eng ishonchli himoyachilaridan biriga aylangan iste'fodagi polkovnik Salom Temirov bilan suhbatlashamiz.

U halqumidagi hayajonni ichiga yutib, motor tovushiga quloq tutgan, "temir qushlar" bilan do'st tutingan. Qanotlar ostidagi yer manzaralari, kabinaga kirib turgan sovuq havo va yovning nafasi sezilgan har bir daqiqa uning hayotini po'latdek chiniqtirgan. Bugun u iste'foda bo'lsa-da, ko'zlaridagi o'tkir nigoh, har bir so'zidagi qat'iyat hamon jangovar ruhi so'nmaganini va hamon jangga shayligidan dalolat berib turibdi.

Uning xizmat yillari tinchlikning narigi tomonidagi keskinliklar, ko'zga ko'rinmaydigan xavf signallari, chegaralar ustida o'tkazilgan tunlar va shiddatli mashqlar bilan yo'g'rilgan tarixdir.

Bugungi suhbatimiz oddiy suhbat emas. Bu, avvalo, tarixni tinglash, mardonavor hayotning izlarini his qilish, yurt osmoniga qalbi bilan sodiq bo'lgan uchuvchining kurash va jasorat bilan to'la yo'lini yana bir bor his qilishdir. Salom Temirov nafaqat osmonda, balki hayotning har bir burilishida ham kurashgan, yenggan, o'z elini himoya qilishdan charchamagan avlod vakilidir.

Endi esa u o'sha balandliklarga qaytadi. Ammo "temir qanotli" do'stlari bilan emas, bu safar hikoya orqali. Biz esa uning har bir so'zida samoning shovqini, dvigatelning nidosi va boshdan o'tkazgan sinovlarini eshitamiz.

Zero Temirovning hikoyalari havo kuchlarining jim, ammo qudratli tarixidir. Xavf bilan yuzma-yuz turib, qarorlarni daqiqalar emas, soniyalar ichida qabul qilgan insonning tarixiga tinglovchining o'zi ham bilmay, hurmat bilan bosh egadi.

– Salom aka harbiy uchuvchilik kasbiga qanday kirib kelgansiz? Ushbu sohani tanlashingizga qanday omillar ta'sir ko'rsatgan?

– Harbiy uchuvchilikka olib kelgan yo'l men uchun oddiy kasb tanlovi emas, balki bolalik orzularim, qat'iy qarorlarim va ichki tuyg'ularim bilan bog'liq uzoq safar bo'lgan. Yoshligimda hovlimiz uzra uchib o'tgan samolyot izlariga qaraganimda, yuragimda qandaydir bir his uyg'onar edi. Osmon men uchun erkinlik va mas'uliyat ramzi bo'lib tuyulardi.

Oilamizda hech kim harbiy sohani tanlamagan. Shu bois aka-ukalarimda ham ushbu sohaga qiziqish bo'lmagan. Ammo kattalarning harbiy hayot haqidagi hikoyalari, ularning boshdan kechirganlari orzum sari harakat qilishga undadi.

Shu davrlarda menda faqat his-tuyg'u emas, balki ongli tayyorgarlik ham shakllana boshladi. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanidan dars beradigan o'qituvchimiz menga bu yo'l oson bo'lmashligini va ushbu yo'nalishni tanlaganlarning ko'plari qiyinchiliklardan o'tolmasdan maqsadidan qaytgani haqida aytib, kuchliroq harakat qilishimni ta'kidlagandi. Har qanday orzu amalga oshishi uchun mehnat va izlanish talab etilishini shundan so'ng anglab yetganman. Bo'sh vaqtlarimda sport bilan shug'ullanib, chidamlilik darajamni oshirishga harakat qildim. Bundan tashqari, turli kutubxonalardan uchuvchilar haqidagi kitoblarni topib o'qirdim va samo lochinlari haqidagi filmlarni tomosha qilardim. Ular men uchun o'ziga xos maktab bo'lgan, desam, mubolag'a bo'lmaydi. Sababi ularda tasvirlangan intizom, o'z kasbiga bo'lgan ishtiyoq va mas'uliyat mening xarakterimni tarbiyaladi va tanlagan yo'lim to'g'riligiga bo'lgan ishonchimni yanada mustahkamladi.

Maktab davrimdayoq o'z oldimga maqsad qo'ydim. Shu maqsad yo'lida jismonan baquvvat, ruhan barkamol va bilimli bo'lishga harakat qildim. Fanlardan, ayniqsa fizika va matematikani o'rganishga jiddiy yondashdim. Chunki samoni zabt etish nafaqat istak, balki kuchli bilim talab qilinishini yaxshi bilar edim.



Vaqt o'tishi bilan orzum aniq maqsadga aylandi. To'g'ri, bu yo'lni bosib o'tish oson kechmadi. Qancha qiyinchiliklarni, sinovlarni va mashaqqatli yo'llarni bosib o'tishga to'g'ri keldi. Ayrim vaqtlarda "Qo'y, Salom, nima qilasan? Shuncha qiyinchiliklarni yengib o'tsang-u, oxirida barcha harakatlaring chippakka chiqsa" degan xayolga ham bordim. Ammo har bir mashaqqat mening irodamni yanada pishirdi.

O'ninchi sinfligimda qat'iy bir qarorga kelib, Sizranskoyedagi Harbiy aviatsiya oliy bilim yurtiga hujjat topshirdim. Oradan vaqt o'tgach, hujjatlarim qabul qilingani va imtihonlardan o'tishim kerakligi haqida xabar keldi. U vaqti 11-sinfni hali tugatmagan edim. Shu sababli bitiruv imtihonlarini may oyida topshirib, iyun oyida mudofaa ishlari boshqarmasi tomonidan yo'llanma bilan harbiy bilim yurtiga yuborildim. U yerga yetib borgach, avval tibbiy ko'rikdan o'tib, kirish imtihonlarini topshirdim. Javoblar ham intiqqanlarni kuttirmasdan tezda e'lon qilindi. O'qishga qabul qilingan kursantlarning ro'yxatida familiyamni eshitgach, boshdan kechirgan barcha mashaqqatlarim zumda tark etdi.

– Ilk parvozingiz haqida bo'lishsangiz, birinchi marta osmonga ko'tarilgan oningizda nimalarni his qilgansiz?

– Ilk parvozimni eslasam, dvigatelning o'tkir ovozi quloqlarim tagida hanuzgacha jaranglaydi. Uchinchi kursga o'tishimiz bilan instruktorlar yordamida uchishni boshlaganmiz. O'sha kun hech yodimdan chiqmaydi. Erta tongdan saflanib, ustozlarimizdan kerakli ko'rsatmalarni olib, parvozga yo'l olganmiz. Uchish yo'lagiga kelganimda, vertolyot bilan birga o'zim ham titraganimni his qilganman. Shunda instruktor yelkamga qoqib, "Qo'rqma, dadil bo'! Osmon seni emas, sen uni boshqar!" deb dalda bergandi. Bu titroq qo'rquvdan emas, ichimdagi kuchli hayajondan bo'lgan. Kabinaga kirganimda u yerdan avvalgidek xotirjamlik emas, mutlaqo yangi bir holat – mas'uliyatning og'ir nafasi sezilardi. Chunki bu safar mashg'ulot emas, bu safar osmon meni sinashi kerak edi.

Samoga ko'tarilishni boshladim. Tezlik oshdi. Buyruq aniq. Bir lahza... va samolyot yer bag'ridan uzildi. Ana shu on men uchun so'z bilan ifodalab bo'lmash lahza bo'lgan. Pastda qolayotgan yer ko'z o'ngimda tez uzoqlashib, yuragim go'yo

ko'kragimga sig'may qolgandek urardi. O'sha paytda men osmonga qarshi emas, osmon bilan birga uchayotganimni his qilganman.

Birinchi balandlikda qo'rquv o'zini ko'rsatdi. Ammo u uzoq qolmadi. Ishonch va orzular oldida ortga chekindi. Mashg'ulotlar, ustozlarning qat'iy ovozi, safda aytilgan "Harbiy uchuvchi xato qilmaydi" degan so'zlar birzumda xayolimdan o'tdi. O'sha damda his-tuyg'ularimdan intizom ustun keldi. Qo'llarim ishonch bilan boshqaruvda, nigohim esa osmon bag'rida edi.

Ilk parvozimda samo boshqacha, kengroq, chuqurroq va mas'uliyatliroq ko'ringan. Shunda ham dovdiramadan har bir harakatim, har bir qarorim qanchalik muhimligini chuqur anglaganman. Eng yuqori balandlikka ko'tarilganimda esa bolalikdagi orzularim ro'yobga chiqayotganini his qilganman.

O'sha parvozdan keyin harbiy uchuvchi osmonga chiqib uchmasligini u burchi bilan ko'tarilishini tushunganman. Ushbu parvozim nafaqat uchishni, balki o'zimni yengishni o'rgatgan birinchi haqiqiy jangim bo'lgan.

– Qaysi parvozingizda muammoga uchragsiz va qaysi biri sizga dars bo'lgan?

– O'qishni tamomlaganimdan so'ng Turkiston harbiy okrugining aviatsiya boshqarmasiga yuborilganman. U yerdan esa Turkmanistonning Ashxobod shahrida joylashgan vertolyot eskadrilyasiga jo'natildim. U yerda M-8 rusumli harbiy vertolyotning uchuvchisi sifatida xizmatimni boshlaganman. Ushbu lavozimda

ma'lum vaqt xizmat qilganimdan so'ng malaka oshirish kurslarida o'qidim. Ta'lim muddati tugagandan keyin meni Buxoro viloyatining Kogon tumanidagi vertolyot polkiga jo'natishdi va M-24 jangovar vertolyot komandiri etib tayinlandim. Xizmatim maromida davom etayotgan bir pallada Afg'onistonda jangovar harakatlar boshlangani haqida xabar oldik. Men va bir guruh uchuvchilar buyruqqa asosan u yerga yetib bordik. Ana o'sha yerdan muammolar boshlangan. Har kuni osmonga ko'tarilishimiz bilan turli xavf-xatarlarga duch kelardik. U yerda xavotirsiz uchishning imkoni yo'q edi. Kim vertolyotni ko'rsa, pastdan turib, urib tushirishga urinardi. Shuning uchun faqat qo'shinlarimiz himoya qilib turgan joylarnigina nazorat qilardik.

1980-yilning mart oyida jangarilarga Eron hududidan yashirin yo'llar bilan qurol-yarog' kirib kelayotgani haqida ma'lumot oldik. Ikki M-8 va 2 ta M-24 vertolyoti bilan kelayotgan yordam guruhini yakson qilish uchun havoga ko'tarildik. Kerakli nuqtaga yetib borgach, karvonni yashirin daradan chiqib kelishini biroz kutdik. Oradan ko'p o'tmay, dushman texnikalari paydo bo'la boshladi. Olingan ma'lumot to'g'riligiga ishonch hosil qilgach, kolonnaga havodan zarba bera boshladik. Shu vaqt vertolyotimda to'satdan nosozlik kuzatildi. Tezligim kamayib, yerga qulay boshladim. Darrov o'zimni o'nglab, "temir qushimni" xavfsiz tarzda qo'ndirdim. Hammayoq chang bo'lib, to'zib ketdi. Chang tarqagach, ro'paramda o'ndan ortiq jangari menga qarata qurol o'q'talib



turganiga ko'zim tushdi. Shu on butun hayotim ko'z oldimdan o'tdi. Xayriyatki, dushmanning o'qiga nishon bo'lmasimdan sheriklarim ularni yakson qildi va narigi vertolyotdagi texnik guruh yordamga kelib, nosozlik chiqqan yerni aniqlab, vaqtincha tuzatishga erishdi. Jang shiddat bilan davom etayotgan pallada amallab havoga qayta ko'tarildim va vazifani muvaffaqiyatli yakunlab, eskadrilyaga qaytdik. Ana o'sha voqea hamon esimdan chiqmaydi. Shundan so'ng vertolyotimni sinchiklab o'zim ko'zdan kechiradigan bo'ldim va bu faoliyatim davomida katta dars bo'lgan.

– Harbiy vertolyot yoki samolyotni boshqarish bilan oddiy uchuvchilik o'rtasidagi farq nimada?

– Harbiy vertolyot yoki samolyotni boshqarish bilan oddiy uchuvchilik o'rtasidagi farq juda katta. Oddiy uchuvchining asosiy vazifasi yo'lovchilarni yoki yukni belgilangan manzilga xavfsiz yetkazib borish. Harbiy uchuvchi esa davlat xavfsizligi, havo hududini himoya qilish, jangovar topshiriqni bajarish uchun osmonga ko'tariladi. Uning har bir parvozi ehtimoliy xavf bilan bog'liq bo'ladi.

Shuningdek, ularning uchish sharoiti ham keskin farq qiladi. Fuqarolik aviatsiyasi qat'iy reja, aniq havo yo'laklari, dispetcherlar nazorati va oldindan hisoblab chiqilgan ssenariylar asosida ishlaydi. Harbiy aviatsiyada esa vaziyat har soniyada o'zgarishi mumkin: past balandlikda uchish, radarlardan yashirinish, tunda yoki yomon ob-havo sharoitida ham parvoz qilish, yuqori tezlik

va keskin manyovrlar odatiy hol hisoblanadi.

Qaror qabul qilishda fuqarolik uchuvchisi ko'p hollarda qoidalar va yo'riqnomalarga tayanadi, muammo paydo bo'lsa, dispetcher va ekipaj bilan maslahatlashadi. Harbiy uchuvchi esa ko'pincha yakka o'zi, juda qisqa vaqt ichida qaror qabul qilishi kerak bo'ladi. Bu qaror nafaqat uning, balki hamrohlarining yoki butun operatsiya taqdiriga ta'sir qilishi mumkin.

Fuqarolik uchuvchisi mas'uliyatli kasb egasi bo'lsa-da, uning oldida to'g'ridan to'g'ri jang xavfi yo'q. Harbiy uchuvchi esa doimiy ravishda xavf, qurolli to'qnashuv ehtimoli bilan yashaydi. Uning tayyorgarligida nafaqat texnika, balki sabr, qo'rquvni boshqara olish ham muhim o'rin tutadi.

Ularning tayyorgarlik darajasi ham turlicha. Fuqarolik uchuvchisi aniq bir turdagi samolyotda xavfsiz uchishga ixtisoslashsa, harbiy uchuvchi turli jangovar ssenariylarga, favqulodda holatlarga, havoda jang qilishga tayyorlanadi. U vertolyot yoki samolyotni faqat transport vositasi sifatida emas, balki qurol va himoya vositasi sifatida ham boshqaradi.

Qisqacha aytganda, oddiy uchuvchilik bu xavfsizlik va barqarorlikka qaratilgan kasb bo'lsa, harbiy samolyotni boshqarish yuksak intizom, jasorat, tezkor fikrlash va Vatan oldidagi ulkan mas'uliyatni o'z ichiga olgan alohida maktabdir.

**“Vatanparvar” muxbiri
leytenant
Mansurbek JABBOROV
suhbatlashdi.**



2026-yil – Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili



Insoniyat tarixi buyuk imperiyalarning yuksalishi va tanazzuli, shaharlarning bunyod bo'lishi va xarobaga aylanishi, sarkardalarning zafarli yurishlari tafsilotidangina iborat emas. Tarixning asl mohiyati – bu xalqning ming yillar davomida sayqal topgan ijtimoiy tafakkuri, o'ziga xos turmush tarzi va jamiyatni mustahkamlovchi noyob institutlarning shakllanish jarayonida yashirindir. Jahon tamaddunlari tarixida o'zbek xalqi nafaqat ilm-u fan va madaniyatdagi yutuqlari, balki o'ziga xos ijtimoiy boshqaruv tizimi bilan ham alohida ajralib turadi. Bu tizimning yuragi va ruhi, shubhasiz mahalla institutidir.

MAHALLA – bu shunchaki geografik hudud yoki ma'muriy birlik emas. Bu – asrlar davomida millatning ma'naviy immunitetini saqlagan, o'zaro yordam, ahillik va adolat kabi fazilatlarini kamol toptirgan, xalqning vijdoni va tafakkurini aks ettirgan betakror ijtimoiy organizm. Uning ildizlari tarixning shu qadar chuqur qatlamlariga borib taqaladi, hatto bugungi kun nuqtayi nazaridan ham uning mukammal tizimi va ijtimoiy samaradorligi kishini hayratga soladi. Ushbu maqolada mahalla fenomenini shunchaki tarixiy hodisa sifatida emas, balki bronza davri manzilgohlaridan boshlab, o'rta asrlarning murakkab shaharsozlik madaniyati orqali, mustaqillik yillaridagi qayta tiklanish va Yangi O'zbekistonning strategik poydevoriga aylanish jarayonlarini tahlil qilgan holda so'z yuritamiz.

IJTIMOY INSTITUTNING ILK KURTAHLARI: SOPOLLITEPA VA "AVESTO"DAGI MAHALLA TIMSOLLARI

Mahalla deganda, ko'z oldimizga ko'pincha o'rta asrlarga xos tor ko'chalari va paxsa devorlari bo'lgan, masjid hamda choyxona atrofiga uyushgan aholi maskani keladi. Biroq bu tasavvur tarixiy haqiqatning faqatgina bir parchasidir. Aslida o'zbek xalqining o'ziga xos bu ijtimoiy boshqaruv tizimining ildizlari miloddan avvalgi davrlarga, ya'ni bronza davrigacha borib taqalishini ko'rsatuvchi ilmiy dalillar mavjud. Bu esa mahallaning shunchaki turmush tarzi elementi emas, balki mintaqadagi ilk davlatchilik kurtaklari bilan deyarli tengdosh bo'lgan muhim ijtimoiy institut ekanidan dalolat beradi.

Bu jarayonning eng yorqin isboti sifatida akademik Ahmadali Asqarov tomonidan o'rganilgan, Surxondaryodagi Sopollitepa yodgorligini keltirish mumkin. Bu bronza davriga oid ilk shahar manzilgohida mahallaning dastlabki kurtaklari va aniq belgilari namoyon bo'lgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, **ushbu manzilgohda dastlab 8 ta oila yashagan**. Ularning o'zaro qarindoshlik rishtalaridan tashqari, moddiy manfaatlar va umumiy xo'jalik ham birlashtirib turgan. Vaqt o'tishi bilan bu yerga 100 dan ortiq patriarxal oila kelib qo'shilishi natijasida ular shahar ichidagi kichik mahallani tashkil etgan. Bu jamoani oqsoqol boshqargan. Oqsoqollar esa, o'z navbatida, oliy oqsoqollar kengashiga bo'ysungan. Kengash sulh tuzish, soliqlarni taqsimlash va jamoani ommaviy ishlarga safarbar etish kabi o'ta muhim masalalarni hal qilgan. Bu – oddiy bir guruh emas, balki aniq iyerarxiyaga ega, vazifalari belgilangan, mukammal o'zini o'zi boshqarish tizimining eng qadimgi ko'rinishi edi.

Bu tizimning naqadar chuqur tarixiy ildizlarga ega ekanini zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"da keltirilgan ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. "Avesto"ga ko'ra, **qadimgi jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy tarkibi bir necha**

pog'onadan iborat bo'lgan: oila ("nmana"), urug'-jamo'a ("vis"), qo'ni-qo'shnichilik jamoasi, ya'ni ma'lum bir hudud yoki davlat ("daxyu"). Bunda har bir bo'g'inning o'z boshqaruvchisi bo'lgan: katta oila jamoasi oqsoqoli "nmanapati", urug' jamoasi boshlig'i "vis", viloyat hokimi "daxyupati" deb atalgan. Qonun chiqaruvchi oliy organ sifatida esa oqsoqollar kengashi – "Varzanapati" faoliyat yuritgan. Bu kengashning qarorlari butun jamoa uchun majburiy hisoblangan. Ayniqsa, zardushtiylar jamoasida kishilarning turmush tarzi, kundalik xo'jalik-iqtisodiy munosabatlari va diniy e'tiqodiga ko'ra, aniq ijtimoiy toifalarga bo'lingani, bu esa jamiyat hayotining yuqori darajada tartibga solinganidan dalolat beradi. Masalan, 15 yoshga to'lgan o'smir jamoaning teng huquqli a'zosiya aylanishi va unga maxsus kamar "kusta" bog'lanishi marosimi ham alohida maqom va majburiyatlarining mavjudligini ko'rsatadi.

BULARNING BARISI SHUNI ANGLATADIKI, o'zbek zaminida odamlarning jamoa bo'lib yashash tartibi, o'zaro aloqalarni muvofiqlashtirish va umumiy manfaatlar yo'lida birlashish tajribasi tasodifiy hodisa emas, balki ming yillar davomida shakllangan, sayqal topgan va o'zining hayotiylikni isbotlagan noyob ijtimoiy tizimdir. Sopollitepa va "Avesto"dagi dalillar mahallaning o'zbek davlatchiligi va madaniyatining ajralmas, fundamental asoslaridan biri ekanini ilmiy jihatdan isbotlaydi. Bu qadimiy institut nafaqat odamlarni birlashtirgan, balki ularning xavfsizligini, xo'jalik yuritishini va ma'naviy kamolotini ta'minlagan.

Demak, biz mahalla tarixini o'rganar ekanmiz, shunchaki bir ijtimoiy tuzilma haqida emas, balki millatning bunyodkorlik ruhi va ijtimoiy dahosining ildizlari haqida so'z yuritayotgan bo'lamiz. Bu qadimiy poydevor keyinchalik o'rta asrlardagi buyuk shaharlarning shakllanishi uchun mustahkam zamin yaratdi. Xo'sh, bu ibtidoiy jamoaviy tuzilmalar qanday qilib o'rta asrlarning gullab-yashnagan shaharlarida murakkab va ko'p qirrali "shahar ichidagi shaharcha"larga aylandi?

O'RTA ASR SHAHARLARIDA MAHALLALARNING ME'MORIY VA IJTIMOY O'RNINI

Bronza davri manzilgohlarida shakllangan ibtidoiy jamoaviy tuzilmalar asta-sekinlik bilan rivojlanib, o'rta asrlarga kelib, Markaziy Osiyoning gullab-yashnagan shaharlarida o'zining mukammal shaklini topdi. Bu davrda mahalla nafaqat ijtimoiy, balki aniq me'moriy-hududiy qiyofaga ega bo'lgan, shahar hayotining barcha jabhalarini tartibga soluvchi murakkab tizimga aylandi. Buni biz tarixchi olimlarning asarlarida keltirilgan Toshkent, Buxoro, Samarqand kabi qadimiy shaharlarning tuzilishiga oid ma'lumotlar orqali yaqqol ko'rishimiz mumkin. O'rta asr shaharlari xaotik tarzda qurilmagan, aksincha chuqur o'ylangan, ijtimoiy va mudofaa mantig'iga asoslangan.

MAHALLA

MILLIY DAVLATCHILIGIMIZNING MUSTAHKAM O'ZAGI

Shaharlar aniq bir necha qismlarga – ark (*hokim saroyi*), shahriston (*asosiy aholi yashaydigan qism*) va rabot (*shahar tashqarisidagi hunarmandchilik va savdo hududi*)ga bo'lingan. Shahriston esa, o'z navbatida, o'nlab, ba'zan yuzlab mahalladan tashkil topgan. **Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" asarida mahallaga "shahar ichidagi shaharcha" deya ta'rif berishi aynan shu tarixiy haqiqatning badiiy ifodasidir**. Bu "shaharcha"larning har biri o'ziga xos mikrokosmos edi. Ularning aksariyati aholining kasb-koriga qarab ixtisoslashgan. Masalan: temirchilar, kulollar, zargarlar, to'quvchilar, etikdo'zlar alohida-alohida mahallalarda istiqomat qilgan. Bu nafaqat hunarmandchilik sirlarining avloddan avlodga o'tishini, balki shahar iqtisodiyotining samarali ishlashini ham ta'minlagan.

Mahallalarning bunday tamoyil asosida shakllanishini Toshkent va Buxoro misolida yaqqol kuzatish mumkin. XIX asr oxiri XX asr boshlariga oid ma'lumotlarga ko'ra, Buxoroda Degrezlar (*qozon quyuvchilar*), So'zangaron (*ignachilar*), Zargaron, Kosagaron (*kosasozlar*) kabi o'nlab hunarmandchilik mahallalari bo'lgan. Toshkentda ham Taqachi (*taqachilar*), Temirchi, Zarqaynar kabi nomlar aholining asosiy mashg'ulotidan darak berib turadi.

Shaharlarning yana bir o'ziga xos jihati ularning mustahkam devorlar va maxsus darvozalar bilan o'ralganidir. Bu darvozalar shunchaki kirish-chiqish joyi bo'lmay, balki shaharni ma'muriy-hududiy birliklar – dahalarga ajratish vazifasini ham bajargan. Masalan, qadimgi Toshkent Shayxontohur, Sebzor, Ko'kcha va Beshyog'och kabi to'rt dahaga bo'lingan va har bir dahaning o'z darvozalari bo'lgan. XIX asr oxirida Toshkentning 12 ta – Qo'ymas, Qo'qon, Qashqar, Labzak, Taxtapul, Qorasaray, Sag'bon, Chig'atoy, Ko'kcha, Samarqand, Kamolon, Beshyog'och darvozalari bo'lib, ularning nomi va soni davrlar o'tishi bilan o'zgarib turgan. Buxoroning esa 11 ta darvozasi bo'lgani tarixiy manbalarda qayd etilgan. **Darvozalar shaharning strategik mudofaa tizimining bir qismi bo'lish bilan birga har bir mahallaning nisbiy mustaqilligini ham ta'minlagan**. Kech kirishi bilan darvozalar yopilgan va har bir mahalla o'ziga xos "qal'a"ga aylangan. Bu esa aholi xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynagan.

Mahalla hayotining markazida esa ko'pincha masjid, choyxona va albatta, hovuz joylashgan. Hovuzlar nafaqat aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlagan, balki ijtimoiy hayotning muhim markazi vazifasini ham bajargan. Odamlar hovuz bo'yida yig'ilib, suhbatlashar, muhim masalalarni hal etishar edi. Tarixchi olim O. Xuxarevaning yozishicha, o'rta asrlarda Buxorodagi 220 ta mahallada 585 ta hovuz mavjud bo'lgan. Bu raqamning o'ziyoq suvning va u bilan bog'liq bo'lgan obodonchilik madaniyatining naqadar yuksak bo'lganidan dalolat beradi. Mahalla

oqsoqoli hovuz suvining tozaligi va undan oqilona foydalanish uchun mas'ul bo'lgan. Shuningdek, shahar ko'chalari va maydonlarini iflos qilmaslikka qattiq rioya etilgan. Hatto uylarning tomidagi qor ham ko'chaga kuralmagan, har bir xonadonning o'zining chiqindilar uchun mo'ljallangan maxsus o'rasi bo'lgan. Bularning bari o'rta asr shaharlarida yuksak ekologik madaniyat va tartib-intizom mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, **o'rta asrlardagi mahalla – bu aniq ichki tuzilishga, o'z-o'zini boshqarish tizimiga, ijtimoiy-iqtisodiy ixtisoslikka va yuksak obodonchilik madaniyatiga ega bo'lgan mukammal ijtimoiy organizm edi**. Shaharlarning bunday me'moriy va ijtimoiy jihatdan puxta rejalashtirilishi, shubhasiz ajdodlarimizning yuksak bunyodkorlik dahosidan va ijtimoiy muhandislik salohiyatidan dalolat beradi. Bu "shahar ichidagi shaharcha"larning nomlari esa o'sha davr hayoti, kasb-korlari va hatto etnik tarkibi haqida bizga nimalarni so'zlab beradi? Bu nomlar ortida qanday tarixiy sirlar yashirin?

MAHALLA NOMLARIDA YASHIRINGAN MADANIY MUJDALAR

O'rta asr shaharlarining murakkab me'moriy tuzilishini o'rganib chiqar ekanmiz, uning jonli vujudini, ya'ni o'sha davr odamlarining turmush tarzi, mashg'uloti va ijtimoiy munosabatlarini tushunish uchun yanada chuqurroq nazar tashlash lozim. Buning eng ishonchli yo'llaridan biri – mahalla nomlari, ya'ni toponimlarni tadqiq etish. Har bir mahalla nomi – bu tasodifiy so'zlar yig'indisi emas, balki o'ziga xos madaniy mujda, o'tmishdan kelgan "xat" bo'lib, uni o'qiy olgan kishiga o'sha davr hayotining sirli sahifalarini ochadi. Valiqlul Ishquvvatov va Fayzulla Tolipovlarning "Mahalla o'tmishda va bugun" kitobida keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, mahalla nomlarini shakllanishiga ko'ra, bir necha yirik guruhga ajratish mumkin. Bu guruhlarning o'ziyoq ajdodlarimizning dunyoqarashi, qadriyatlarini va ijtimoiy tuzilishi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Birinchi va eng keng tarqalgan guruh – bu mashhur shaxslar, hukmdorlar, olim-u ulamolar va avliyolar nomlari bilan atalgan mahallalar. Masalan, Buxorodagi Amir Yormuhammadxon, Iskandarxon, Boqi Muhammadxon kabi nomlar Ashtarxoniylar sulolasi vakillarining xotirasini abadiylashtirgan bo'lsa, Qozi Mir Hoshim, Qozi Avhad, Qozi Nuriddin kabi nomlar o'sha davrning nufuzli qozilari va adolat posbonlaridan darak beradi. Toshkentdagi Shayx Xovandi Tohur, Zangi ota, Samarqanddagi Maxdumi A'zam, Buxorodagi Bahouddin Naqshband nomlari esa xalqning o'z ma'naviy ustozlariga bo'lgan chuqur hurmatining belgisidir. Bu jamiyat o'z tarixini va buyuk siymolarini nafaqat kitoblarda, balki kundalik hayotda, o'zlari

yashab turgan joy nomlarida saqlashga intilganining yorqin namunasidir.

Ikkinchi yirik guruh – bu aholining kasb-kori, hunarmandchilik turi bilan bogʻliq nomlar. Yuqorida taʼkidlanganidek, oʻrta asr shaharlarida kasb-korga qarab, ixtisoslashish kuchli boʻlgan. Buxoro, Toshkent, Qoʻqon kabi shaharlardagi Zargaron (*zargarlar*), Misgaron (*misgarlar*), Soʻzangaron (*ignachilar*), Degrezchilar (*qozon quyuvchilar*), Taqachi (*taqachilar*), Kosagaron (*kosa yasovchilar*) kabi oʻnlab mahalla goʻyoki oʻsha shaharning “tirik iqtisodiy xaritasi”ni chizib beradi. Bu nomlarga qarab, qaysi hududda qanday mahsulot ishlab chiqarilganini, shaharning sanoat salohiyati qanday boʻlganini bemaolol tasavvur qilish mumkin. Bu – oʻz davri uchun mukammal ishlab chiqarish klasterlarining oʻziga xos koʻrinishi edi.

Uchinchi guruh – bu maʼlum bir urugʻ, qabila yoki etnik guruh nomlari bilan atalgan mahallalar. Masalan, Toshkent, Buxoro, Samarqand kabi yirik shaharlarda Qangʻli, Doʻrmon, Uygʻur, Qiyot, Nayman, Qatagʻon, Turk kabi nomlarning uchrashi oʻzbek xalqining shakllanish jarayonida ishtirok etgan turli urugʻ va elatlarning izlarini saqlab qolgan. Bu toponimlar shaharlarning turli madaniyatlar tutashgan maskan boʻlganini koʻrsatadi. Buxoro va Nurota shaharlarida oʻzbek urugʻlari nomi bilan atalgan mahallalar bilan birga tojik urugʻlari nomi bilan bogʻliq Sidukiyon, Varokiyon, Azizon kabi nomlarning mavjudligi asrlar davomida ikki qardosh xalqning qanchalar ahil va inoq yashaganidan dalolat beradi.

Toʻrtinchi guruh – bu shahar topografiyasi, yaʼni joyning relyefi, tabiiy geografik xususiyatlari bilan bogʻliq nomlar. Chuqur mahalla, Baland masjid, Labi hovuz, Quduqboshi, Jarkoʻcha kabi nomlar oʻquvchining tasavvurida oʻsha joyning manzarasini jonlantiradi. Bu nomlar ajdodlarimizning atrof-muhitga naqadar sinchkov boʻlganini, har bir tepalik, jarlik yoki suv manbaini alohida qadrlaganini koʻrsatadi. Beshinchi guruh esa muqaddas qadamjo, mozar va masjid-madrasalar nomi bilan bogʻliqdir. Buxorodagi Xoja Porso, Xoja Zayniddin, Toshkentdagi Xastimom (*Hazrati Imom*), Shayx Zayniddin kabi mahallalar nomlari ularning markazida joylashgan maʼnaviy obidalar sharafiga qoʻyilgan. Bu esa jamiyat hayotida din va maʼnaviyatning naqadar muhim oʻrin tutganini, mahalla nafaqat ijtimoiy, balki kuchli maʼnaviy-ruhiy markaz ham boʻlganini anglatadi.

Xulosa qilib aytganda, mahalla nomlari – bu shunchaki roʻyxat emas, balki ajdodlarimizning ijtimoiy tuzilishi, iqtisodiy hayoti, etnik tarkibi, dunyoqarashi va qadriyatlari haqida batafsil hikoya qiluvchi “tosh kitob”dir. Bu nomlarni oʻrganish orqali biz oʻtmishga sayohat qilib, oʻsha davr odamlarining hayotini his etishimiz mumkin. Bu nomlar ortida jonli insonlar, ularning kasb-kori, eʼtiqodi va orzu-umidlari mujassam. Biroq bu mukammal ijtimoiy-hududiy tizim qanday ichki qoidalar asosida ishlagan? Odamlarni bu jamoalarda yashashga, oʻzaro hamkorlik qilishga undagan, ming yillar davomida uning barqarorligini taʼminlagan “koʻrinmas kuch” nima edi?

QOʻNI-QOʻSHNICHILIK: YOZILMAGAN QONUNLARGA ASOSLANGAN IJTIMOIY HAMJIHATLIK FENOMENI

Mahallaning tarixiy ildizlari, mukammal shaharsozlik anʼanalari va nomlarida yashiringan madaniy mujdalarni oʻrganib, uning tashqi qiyofasi va tuzilishi haqida tasavvurga ega boʻldik. Biroq mahallaning asl moʻjizasi uning binolari yoki nomlarida emas, balki uni ming yillar davomida yashab

kelishini taʼminlagan ichki mexanizmida, uning ruhi boʻlgan – qoʻni-qoʻshnichilik munosabatlarida mujassamdir. **Qoʻni-qoʻshnichilik – bu shunchaki yonmayon yashash emas, balki yozilmagan qonunlar, axloqiy meʼyorlar va oʻzaro masʼuliyatga asoslangan noyob ijtimoiy hamjihatlik tizimi.** Bu tizim har qanday rasmiy qonundan kuchliroq ishlab, jamiyatda adolat, mehr-oqibat va oʻzaro yordam muhitini yaratgan.

Oʻzbek xalqi milliy mentalitetida azaldan ozchilikning koʻpchilikka boʻysunish tamoyiliga amal qilib kelingan. Bu tamoyilning amaliy ifodasi aynan mahalla hayotida namoyon boʻlgan. Jamoa fikri, oqsoqolning maslahati, kattaga hurmat, kichikka izzat kabi mezonlar shaxsiy manfaatlardan ustun qoʻyilgan. Bu esa jamiyatning parchalanishiga emas, balki birlashishiga xizmat qilgan. Qoʻshnichilik munosabatlarining naqadar muhim ekani diniy va dunyoviy manbalarda ham alohida taʼkidlanadi.

Hadislarda: “Hovlining old tomonidan qirq hovli, orqa tomonidan qirq hovli, oʻng tomondan qirq va chap tomondan qirq hovli, hammasi qoʻshni hisoblanadi” deyilishi bu tushunchaning geografik yaqinlikdan koʻra ancha kengroq ijtimoiy maʼnoga ega ekanini koʻrsatadi. Bu – ulkan birdamlik doirasini yaratgan. Bu birdamlik amalda qanday namoyon boʻladi?

Bu, eng avvalo, hashar anʼanasida koʻrinadi. Azaldan uy qurish, ariq tozalash, toʻy yoki maʼrakaga tayyorgarlik koʻrish kabi yirik ishlar butun mahalla ahlining yordami bilan amalga oshirilgan. Bu nafaqat ogʻirni yengil qilgan, balki jamoa aʼzolari oʻrtasidagi aloqalarni mustahkamlagan, ularda umumiy ishga daxldorlik hissini tarbiyalagan.

Ikkinchidan, bu shodiyona va musibatda birga boʻlish tamoyilida namoyon boʻlgan. Mahalladagi har bir toʻy, har bir tantana butun jamoaning bayramiga aylangan. Shuningdek, biror xonadonga musibat yetsa, butun mahalla uning yonida turgan, moddiy va maʼnaviy koʻmak bergan.

Uchinchidan, bu mahallaning oʻz ichki adolat tizimida oʻz aksini topgan. Oqsoqollar kengashi kichik nizolarni, oilaviy kelishmovchiliklarni qozixonagacha olib bormasdan, mahallaning oʻzida, adolat va insof yuzasidan hal qilgan. Bunda asosiy maqsad kimnidir jazolash emas, balki yarashtirish, oilani saqlab qolish, insonlar oʻrtasidagi mehr-oqibatni tiklash boʻlgan.

Toʻrtinchidan, bu yoshlar tarbiyasidagi umumiy masʼuliyatda namoyon boʻlgan. Oʻzbek oilasida farzand nafaqat ota-onaning, balki butun mahallaning farzandi hisoblangan. Har bir katta yoshli inson begona bolaning nojoʻya harakatini koʻrsa, unga tanbeh berishga, toʻgʻri yoʻl koʻrsatishga oʻzini haqli va burchli deb bilgan. **Bu esa sogʻlom ijtimoiy nazoratni shakllantirib, yosh avlodning odob-axloqli, mehnatsevar va vatanparvar boʻlib ulgʻayishi uchun mustahkam zamin yaratgan.** Butun tizim – hashar, oʻzaro yordam, jamoaviy nazorat, oqsoqollarning obroʻsi – mahallani shunchaki aholi yashaydigan joydan chinakam tarbiya oʻchogʻiga, milliy qadriyatlar maskaniga aylantirgan. Bu – davlatning aralashuvisiz, xalqning oʻzi tomonidan, ming yillar davomida yaratilgan va sayqal berilgan mukammal ijtimoiy boshqaruv tizimi edi.

Buyuk ijtimoiy meros, afsuski XX asrdagi tarixiy boʻhronlar davrida oʻz mavqeyini qisman yoʻqotdi. Lekin millatning xotirasida va qonida saqlanib qolgan bu buyuk institut mustaqillik tufayli qayta tiklanish va yangicha mazmun bilan boyish imkoniyatiga ega boʻldi. Xoʻsh, bu qadimiy meros

Yangi Oʻzbekiston sharoitida qanday yangi qiyofa kasb etdi va qanday qilib zamonaviy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchiga aylandi?

YANGI OʻZBEKISTONDA MAHALLANING UYGʻONISHI

Ming yillar davomida millatning ijtimoiy tayanchi, maʼnaviy qoʻrgʻoni va hamjihatlik maktabi boʻlib kelgan mahalla instituti, XX asrdagi mafkuraviy tazyiqlar ostida oʻzining asl mohiyati va vakolatlarini yoʻqotishga yuz tutgan boʻlsa-da, xalqning qalbida va turmush tarzida yashashda davom etdi. Oʻzbekiston mustaqillikka erishgach, milliy davlatchilik asoslarini qayta tiklash jarayonida aynan mana shu tarixiy institutga tayanish strategik ahamiyatga ega ekani anglab yetildi. Bu shunchaki eski tuzilmani qayta tiklash emas, balki uni zamonaviy tamoyillar va taraqqiyot talablari asosida yangi mazmun bilan boyitish, chinakam xalqchil boshqaruv organiga aylantirish degani edi.

YANGI OʻZBEKISTONDA mahallaning jamiyat hayotidagi oʻrnini yanada kuchaytirish borasidagi islohotlar mutlaqo yangi bosqichga koʻtarildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ilgari surilgan **“Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”** degan tamoyil mahalla faoliyatining bosh mezoniga aylandi. Bugungi kunda mahalla – bu faqatgina toʻy-maʼrakani tartibga soluvchi yoki qoʻshnilar oʻrtasidagi kichik nizolarni hal etuvchi tuzilma emas. U davlat va jamiyat oʻrtasidagi eng ishonchli koʻpri, aholining muammolarini bevosita oʻrganadigan va ularni hal etishda amaliy yordam koʻrsatadigan, islohotlarning samarasini har bir xonadongacha yetkazadigan qudratli kuchdir.

Ayniqsa, “Obod mahalla” va “Obod qishloq” dasturlarining qabul qilinishi bu borada tub burilish yasadi. Bu dasturlar doirasida mahallalarning infratuzilmasi – yoʻllar, ichimlik suvi, elektr energiyasi, tabiiy gaz taʼminoti tubdan yaxshilanmoqda. Maktab, bogʻcha, tibbiyot maskanlari qurilmoqda va taʼmirlanmoqda. Bu esa odamlarning hayot sifatini oshirish bilan birga ularda oʻz mahallasiga, Vataniga daxldorlik hissini, bunyodkorlik kayfiyatini kuchaytirmoqda.

Bugungi kunda “mahalla yettiligi” zimmasiga juda katta vazifalar yuklangan. Ular hududdagi tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi

bandligini taʼminlash, kambagʻallikni qisqartirish, xotin-qizlar va yoshlar bilan manzilli ishlash kabi strategik ahamiyatga molik masalalar bilan bevosita shugʻullanmoqda. “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” kabi tizimlarning joriy etilishi ijtimoiy himoyani aniq, manzilli va shaffof amalga oshirish imkonini berdi. Bunda asosiy tayanch nuqtasi aynan mahalla boʻlmoqda.

Globallashuv va axborot xurujlari kuchaygan hozirgi sharoitda mahallaning yana bir muhim vazifasi – yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish, ularni turli yot gʻoyalardan taʼsiridan asrashdir. Ota-bobolarimizdan meros mehr-oqibat, kattaga hurmat, oʻzaro yordam, vatanparvarlik kabi fazilatlarini yoshlar qalbiga singdirishda oila, maktab va mahalla hamkorligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. **Bugungi kunda Oʻzbekistondagi jamiki mahallalarning har biri – bu Uchinchi Renessans poydevorini qurishda ishtirok etayotgan bunyodkor kuch.**

Tarix tajribasi koʻrsatadiki, mahalla instituti oʻzbek xalqi uchun shunchaki ijtimoiy tuzilma emas, balki uning milliy oʻziga xosligi, bunyodkorlik dahosi va yuksak maʼnaviy qadriyatlarining yorqin timsolidir. Biz uning ildizlarini Sopollitepa kabi qadimgi manzilgohlardan, “Avesto”dagi ijtimoiy tartiblardan, oʻrta asrlarning mukammal shaharsozlik madaniyatidan va har bir mahalla nomida yashiringan jonli tarixdan topishimiz mumkin. Biz uning asl kuchini yozilmagan, lekin qonunlardan-da, mustahkamroq boʻlgan qoʻni-qoʻshnichilik rishtalarida, oʻzaro yordam va hamjihatlik falsafasida koʻramiz.

ENG MUHIMI, asrlar sinovidan oʻtgan bu noyob meros bugungi kunda Yangi Oʻzbekistonni qurish yoʻlida davlat va jamiyat oʻrtasidagi eng ishonchli koʻpri, xalqchil islohotlarning chinakam tayanchiga aylanganiga guvoh boʻlmoqdamiz. **Mahallaning oʻtmishi uning naqadar mustahkam poydevorga ega ekanini koʻrsatsa, buguni uning kelajagi yanada buyuk boʻlishidan dalolat beradi.**

Zero oʻz tarixiy tajribasidan kuch olib, uni zamonaviy taraqqiyot bilan uygʻunlashtira olgan millatgina yuksak marralarga erisha oladi.

Alisher EGAMBERDIYEV,
Oʻzbekiston Milliy universiteti
tayanch doktoranti



Oqil Gulyamov suratga olgan



Chegara qo'shinlarida

ASKAR OTA-ONALARI SHARAFLANDI!

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi hamda 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan mamlakatimiz bo'ylab “Milliy armiya – ona yurt qalqoni, tinchligimiz posboni” shiori ostida harbiy-vatanparvarlik tadbirlari keng qamrovda o'tkazilmoqda.



Albatta, Vatanga xizmat qilish har bir er yigitning sharaflı burchi hisoblanadi. Ta'kidlash lozimki, bugungi kunda Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari safida mardonavor turib sarhadlarimiz daxlsizligi yo'lida o'z fidoyiliklarini namoyon etayotgan mard va jasur o'g'lonlar zimmasidagi sharaflı vazifani sidqidildan ado etish orqali xalqimizning tinch va osuda hayotini ta'minlashga katta hissa qo'shib kelmoqda.

O'z navbatida bunday navqiron, elparvar o'g'lonlarni tarbiyalab, voyaga yetkazgan ota-onalari ham o'z dilbandlarining kamolidan nihoyatda mamnun.

Ana shunday quvonchli lahzalarni Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlariga qarashli Surxondaryo, Jizzax va Andijon viloyatlarida joylashgan harbiy qismlar o'rtasida “Askar ota-onalarini sharaflaymiz!” mavzusida o'tkazilgan onlayn videomuloqot davomida ham kuzatish mumkin bo'ldi. Muddatli harbiy xizmatchilar, ularning ota-onalari, yaqinlari, sinfdosh do'stlari va ustozlari jam bo'lgan ushbu tadbir davomida so'nggi yillarda milliy armiyamizning kuch-qudrati tobora yuksalib borayotgani, muddatli harbiy xizmat mamlakatimiz yoshlari uchun chin ma'nodagi sharaf va

matonat maktabiga aylangani xususida so'z yuritildi.

Unutilmas lahzalarga boy tarzda kechgan videomuloqot chog'ida nuroniy otaxon-u onaxonlar, askar yigitlarning aka-ukalari-yu opa-singillari va tengqur do'stlari tomonidan: “O'g'lim, biz sen bilan faxrlanamiz!”, “Xizimatingni yorug' yuz bilan tamomlab, sog'-salomat yonimizga qayt”, “Akajon, men ham, albatta, harbiy bo'laman!”, “Do'stim, sen bizning faxrimizsan!” kabi so'zlar yangrab, ko'ngillarga iliqlik va xush kayfiyat baxsh etuvchi samimiy tilaklar aytiladi.

– Albatta, yurt himoyasi yo'lida sobit turgan farzandi bilan diydorlashuv har bir ota-ona qalbiga o'zgacha quvonch, cheksiz hayajon va faxr-iftixor tuyg'ularini bag'ishlaydi. Bugun men ham farzandimni harbiy libosda ko'rib, yuzma-yuz gaplashib juda xursand bo'ldim. O'zi bolaligidan shu sohaga qiziqardi. Orzulari ushalib, Vatanga xizmat qilayotganidan nihoyatda mamnunman. Kelajakda shu soha bo'yicha o'qib, izlanib yetuk harbiy kadr bo'lishini istayman. O'tkazilayotgan tadbir hayotimdagi eng baxtli kunlardan biri bo'lib qoladi. Men farzandim bilan faxrlanaman, – deydi videomuloqot qatnashchisi Shalola Ahmedova.

O'z navbatida, askar o'g'lonlar ham harbiylikning sharaflı va mas'uliyati, Davlat chegaralarini tun-u kun ishonchli qo'riqlash ortida yaqinlarining tinchligi va osoyishta hayoti turganini his etish ularga kuch-g'ayrat va katta shijoat bag'ishlayotgani, haqiqiy hayot maktabi saboqlarini olib, kundan kunga irodasi toblanib borayotgani xususida so'z yuritdilar.

Shuningdek, bo'linmalarda muddatli harbiy xizmatchilar uchun yaratilayotgan shart-sharoit va qulayliklar, berilayotgan imtiyozlar ham alohida e'tirof etilib, yaqinlarga yo'llangan sog'inchli salomlar, bayram tabriklari va ijro etilgan kuy-qo'shiqlar vatanparvarlik, yurtga sadoqat hamda mehr-oqibat tuyg'ulari ila yo'g'rildi.

Namangan viloyati Pop tumanidagi harbiy qismlarning birida tashkil etilgan videomuloqotda ham Surxondaryo viloyatidan muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan oddiy askarlar hamda janubiy sarhadlarimizda o'z yigitlik burchini o'tayotgan namanganlik o'g'lonlar o'rtasida diydorlashuv onlari bo'lib o'tdi.

– Men Chust tumanidan Surxondaryo viloyatidagi harbiy qismga muddatli harbiy xizmatga chaqirilganman. Bugun ota-onam

bilan onlayn tarzda ko'rishdim. Ular bilan suhbatlashib, jangovar ruhim yanada ortdi. Yaqinlarim tinch va osoyishta hayot kechirishi uchun hissam qo'shilayotganidan juda g'ururlanaman, – deydi muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Javohir Bozorov.

Tadbir davomida farzandini yurt himoyasiga yo'llagan jonkuyar va fidoyi onalar sharaflanib, guldastalar hadya etildi. Shundan so'ng ota-onalar videomuloqot tashkil etilgan harbiy qismlar hayoti, sarhadlarimiz posbonlari uchun yaratilgan shart-sharoit va qulayliklar bilan yaqindan tanishdilar.

Shu kabi ko'ngillarga xush kayfiyat va zavq ulashuvchi tadbir Toshkent hamda Sirdaryo viloyatlaridan muddatli harbiy xizmatga ketib, hozirda Namangan va Andijon viloyatlarida o'z yigitlik burchini o'tayotgan askarlar va ularning yaqinlari ishtirokida ham o'tkazildi. Maroqli diydor va sog'inchli salomlarga boy tarzda o'tgan muloqot davomida Toshkent tumani madaniyat bo'limi xodimlari tomonidan namoyish etilgan konsert dasturi barchaga manzur bo'ldi.

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari



Ijtimoiy Fikr

Inson hayoti odatlar yig'indisidir. Ular orasida insonni yuksaltiruvchi, sog'lom va ma'naviy yetuk qiluvchi odatlar bor, yana shundaylar borki, avval beozor ko'rinadi, keyin esa insonning jismiga ham, ruhiga ham sekin-asta darz solib boradi. Ana shunday illatlardan eng xavflisi zararli odatlardir. Ular ko'pincha qattiq taqiqlar bilan emas, balki oddiy suhbat, tasodifiy uchrashuv, "bir marta bo'lsa ham" degan bahona bilan hayotimizga kirib keladi.



Suratlar internetdan olindi



YOSHILAR AYBDORMI

yoki

BIZ O'RNAK BO'LOLMAYAPMIZMI?

Zararli odatni o'ziga kasb qilib olgan insonni gunohkor deb atash adolatdan yiroq. U avvalo, o'z sog'lig'ini xatar ostiga qo'yayotgan odamdur. Eng achinarlisi, zararli odatlar insonga tug'ma ravishda berilmaydi. Chunki yangi tug'ilgan go'dak toza varaqqo o'xshaydi: unda na chekish bor, na ichish, na boshqa illatga nisbatan moyillik bo'lmaydi.

Savol tug'iladi: unda bu odatlar qayerdan paydo bo'ladi? Javob esa hammaga tanish – ularni bolalarga biz, kattalar o'rgatamiz. Lekin ko'pchiligimiz zararli odatlar haqida gap ketganda, ko'pincha aybni yoshlarga yuklaymiz. "Zamon buzildi", "Yoshlar boshqacha bo'lib ketdi", deymiz. Ammo bir lahza to'xtab, o'zimizga savol bermaymiz: ularga buni kim o'rgatdi? Qachon va qayerda sigareta "erkaklik belgisi"ga, qadah esa "do'stlik ramzi"ga aylanib qoldi?

Bu tasavvurlar o'z-o'zidan paydo bo'lgani yo'q. Ularni kattalar shakllantirdi, jamiyat ko'z yumib qabul qildi. Chunki zararli odatlar aksar holda jinoyat yoki qo'pol qoidabuzarlik sifatida emas, balki "oddiy hayot tarzi" sifatida kirib keladi. Bir qadah – hurmat uchun, bir sigareta – suhbat uchun muhim omilga aylandi. Ana shu "bir marta"lar yillar o'tib, insonni asir qildi. Keyin esa biz natijadan hayron qolamiz: sog'liq zaif, iroda siniq, yoshlar charchoq, jamiyat asabiy.

Eng xavfli tomoni shundaki, zararli odat insonni darhol yemirmaydi. U sekin ishlaydi. U shovqin qilmaydi, ogohlantirmaydi. U inson umrini qisqartirib borayotganini, avlodlar o'rtasidagi aloqani uzib qo'yayotganini, sog'lom muloqot o'rnini sun'iy yaqinlik egallayotganini ko'pincha payqamaymiz.

Bugun ko'chada, ishxonada, to'y-ma'rakalarda, hatto ziyolilar davrasida ham bir manzarani ko'ramiz: suhbat mazmuni yetishmaganda, qadah to'ladi, fikr kamayganda, sigareta yoqiladi. Bu – ma'naviy bo'shliq belgisi. Bu – umumiy g'oya, umumiy maqsad,

umumiy qiziqish yo'qligining oshkora alomati.

Biz yoshlarga "chekma", "ichma", "bunday qilma" deymiz. Lekin ularga nima bilan yashashni, nimani suhbat mavzusi qilishni, qaysi qadriyatlar bilan faxrlanishni o'rgatyapmizmi? Agar javob yo'q bo'lsa, taqiqlar foyda bermaydi. Chunki bo'sh qolgan joyni har doim illat egallaydi-da.

Esimda, yoshligimizda biz – birinchi kurs talabalari hozirgina birgalikda ko'rgan kinofilm voqealarini bir-birimizga aytib berib qizg'in suhbat qurardik. Chunki suhbat uchun boshqa umumiy mavzu yo'q edi. Hammamiz respublikaning turli burchaklaridan Samarqandga kelib, endigina bir-birimiz bilan tanishgan paytlarimiz, edi o'shanda. Eslash uchun umumiy bo'lgan voqealar yo'q edi bizda, qiziqishlarimiz ham har xil edi.

Keyinchalik esa bir joyga to'plansak, oz-ozdan bo'lsa-da, pivo, vino va keyinchalik, hatto aroq ham icha boshlaganimiz. Keyinchalik umumiy mavzular ko'paydi. Imtihonlarga birgalashib tayyorlana boshladik. Asta-sekin spirtli ichimlik bizga umumiy mavzu bo'lmay qoldi va bizning zararli odatimizga aylanmadi.

Chekish-chi, nahotki, u ham umumiy mavzu bo'lsa, dersiz? Xuddi shunday, to tashlab bo'lmaydigan zararli odatga aylanguncha, u ham odamlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. "Yur, bittadan chekaylik", – der edi mening kichik ustozim Leonid Mixaylovich Gudovskiy, dissertatsiyamga bog'liq biron-bir muammo paydo bo'lib qolsa. Biz chekish uchun ajratilgan joyga chiqib olib, muhokamani boshlardik. Asta-sekinlik bilan men u kishining zararli odatini "o'zlashtirib" oldim. Agar u chekish o'rniga baliq oviga qiziqqanda, iymonim komilki, men ham baliq ovchisi bo'lar edim. Ko'rdingizmi, yoshlar chekishni kattalardan o'rganadi. Bu – aksioma.

Katta o'g'lim Aziz bir yoshga to'lganda chekishni tashladim. U hozir 42 yoshda, qachon chekishni

boshlaganini bilmayman, lekin o'g'li Azim bir yoshga to'lgach, chekmay qo'ydi. Kichkinam Akmal ham chekar edi (ikkovi ham "bildirmasdan" chekardi), sport bilan shug'ullana boshlagach, chekishni tashladi. Shu o'rinda "Nima uchun shifokorlarning bolalari chekdi?", "Siz sog'lom turmush tarzini odat qilib, farzandlaringizga foydali odatlaringizni o'rgatmadingiz" dersiz. Birinchidan, keling, bizda o'zi qanaqa foydali odatlar bor ekanini aniqlab olaylik. Biz ishlar edik, bo'sh vaqtlarimizda kitob o'qirdik, televizor ko'rardik va bolalarga, bizga murojaat qilganida, xalaqit berma, der edik. To'g'ri, ular kichkinaligida ular bilan ko'proq muloqot qilardik, sirkka, hayvonot bog'iga birga borardik, ulg'aya boshlagach ular bilan shug'ullanmay qo'ydik. Eslesam, kundalik tekshirish-u "o'qishlar qalay", deb so'rashdan nariga o'tmabmiz. Ular o'zlarining tengqurlari bilan muloqotda bo'lishar, hovlida futbol o'ynar, biz esa kitob o'qirdik, televizor ko'rardik. Chunki bolalarimiz bilan muloqot qilish uchun umumiy mavzu yo'q edi bizda. Umumiy mavzu katta o'g'lim Aziz institutni bitirib, ishga kirgach, paydo bo'ldi. Biz uchun umumiy mavzu ish, qolaversa, ishga bo'lgan munosabat edi...

Bolalar yetarli tarbiya olmasa yoki tarbiyadan mahrum bo'lib qolsa, bunda aybni, avvalo, kattalar – ota-onalar o'z zimmasiga olishi kerak. Chunki tarbiya nasihat bilan emas, avvalo, shaxsiy o'rnak bilan beriladi. Shu o'rinda tabiiy savol tug'iladi: nima uchun ko'pchilik yoshlar kattalarning, hatto o'z ota-onalarining gapiga quloq solmaydi, ularning nasihatlarini o'z vaqtida qabul qilmaydi, hayot tajribalarini rad etadi? Buning bir necha sabablari bor.

Birinchi – yoshlik tabiati. Bejiz "yoshlik – beboshlik" deyilmaydi. Inson ko'pincha donolikka erishgan paytida kuchdan qolgan bo'ladi va o'tgan yoshligini tanqidiy ko'z bilan baholay boshlaydi: "Eh, qaniydi, yigirma besh yoshimda

shu aqlim bo'lganida edi!" deb afsus qiladi. Ammo aynan shu yoshdagi, hali tajribasiz va hayotni endi o'rganayotgan farzand bu afsuslarni nasihat sifatida qabul qilishga tayyor emas.

Ikkinchisi – yanada og'irroq va achchiqroq. Yosh inson ko'pincha kattalarning so'zidan ko'ra, hayotiga qarab xulosa chiqaradi. Agar ota-onaning o'tgan umri samarasiz kechgan bo'lsa, bu holat uning tashqi ko'rinishida, yurish-turishida, turmush tarzida va moddiy ahvolidagi o'z aksini topadi. Bunday paytda nasihat o'rnakka aylana olmaydi, so'z ta'sirini yo'qotadi.

Uchinchisi – biz katta bo'lgan sari bolalar bilan muloqot qilish usulimizni yo'qotamiz. Samimiylik, xushchaqchalik o'rnini buyruq ohangi, qat'iy talab va e'tirozga o'rin qoldirmaydigan gaplar egallaydi. Ammo inson, ayniqsa yosh inson, buyruqni emas, tushunishni istaydi. Uni eshitishlarini xohlasak, avval o'zimiz eshitishni o'rganishimiz kerak.

Shuning uchun haqiqiy tarbiya doimiy ravishda o'z ustida ishlashni talab qiladi. Katta inson tinmay o'qib-o'rganishi, samarali mehnat qilishi, ma'lumotli, madaniyatli, sog'lom va fikri ravshan bo'lishi lozim. Bolalar bilan yaqinlashtiradigan umumiy mavzu esa har xil bo'lishi mumkin: qiziqarli kitob, sport turi, birgalikdagi sayohat yoki oilaviy dam olish. Muhimi, bu mavzu sun'iy emas, samimiy bo'lishi kerak.

Albatta, farzandlar va kattalar o'rtasida ma'lum vaqt intellektual jarlik paydo bo'ladi. Bu tabiiy hol. Ammo bu jarlikdan o'tish vazifasi bolalarning emas, kattalarning zimmasida. Chunki tajriba ham, mas'uliyat ham ular tomonida. Bu yo'lda esa chidam, kamtarinlik va samimiy mehr eng ishonchli yo'ldoshdir.

Muxtor ESHBEKOV

Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti
Harbiy tibbiyot instituti

Xotira

URUSH KO'RGAN MUALLIM

Odatdagi kunlarning birida ayolim qo'limga qalingina daftarni tutqazib dedi:

– Sofiya muallim berib yuboribdi, otasi Normamat domla haqida yozgan ekan...

“Ha, Normamat Eshmurodov fidoyi muallim, yaxshi odam edi”, degan o'y bilan daftarni varaqlab, o'qishga tushdim.

“Kecha otam tushimga kirdi, hech bunday bo'lmasdi, xuddi avvalgidek orasta kiyinib maktabga borayotganmish...”

Otamning aytishicha, u kishi Buxoro amiri yurtini tashlab afg'onga qochgan paytda, ya'ni o'tgan asrning yigirmanchi yilida tug'ilgan ekan.

Otamning bolaligi qahatchilik, yo'qchilikda o'tgan bo'lsa-da, Eshmurod bobom va Unnash momomlarning sa'y-harakati bois o'n ikki yoshida Nogahon qishlog'ida Hojixon eshon boboning xonadonida yashab, eskicha savod chiqargan.

So'ngra Do'ngsanchiqul qishlog'ida ochilgan maktabda tahsil olgan.

Ayni qirchillama yigit yoshida mash'um urush boshlanib, otam ham tengqurlari qatori frontga yo'l olgan. Dushman bilan kechgan og'ir janglarning birida bomba portlashi tufayli tuproq tagida ko'milib qolgan, quroldosh do'stlari uni bazo'r kavlab olganda chap yelkasini snaryad yulib ketgan, og'zidagi sakkizta tishi ham singandi.

Yaralangan otam harbiy gospitalga yetolmay, qishloq chekkasidagi yerto'ladan panohtopgan. Keksa ayol va uning nabirasi otamning yarasini bog'lab yegulik bergan. Ertasiga esa dushman askarlari kelib, otamni asir olib, haydab ketgan.

Otamning azob-uqubatlarga to'la qora kunlari boshlangan. Tutqunlikda o'tkazgan kunlari haqida otam rahmatli so'zlashni yoqtirmas, gap mavzusi kelgan paytda esa:

“Ey, qo'yinglar, yodimga solmanglar, shundoq ham har kecha tushimga kirib azob beradi”, derdi.

Otamning Yortepa qishlog'idan bo'lgan Tursoat bobo bilan ayrilmas do'stlik rishtasi o'sha og'ir va mash'um kunlarda bog'langan ekan.

Asirlikda bo'lgan otam kunlarning birida tush ko'ribdi, tushida uzun ilonga minib yurganmish, uni qishloqdoshi usta Jabborning otasi Qurbon bobo kutib olibdi. Otam ko'rgan tushining ta'birini Tursoat bobodan so'rabdi. Bobo esa otamga tez orada ozodlikka chiqib, eliga poyezdda borishini, uni Qurbon bobo kutib olishini aytibdi. Qarang, ko'p o'tmay, qo'shinlarimiz asirlarini ozod qilib, otam ham poyezdda yurtiga qaytibdi. Eng ajablanarlisi, otamni qishloqqa kiraverishda o'sha Qurbon bobo kutib olibdi.

Tursoat boboning Bekmurod Tursoatov degan shoir nabirasi bor edi. Otam har gal poytaxtga borsa, Bekmurod kutib olardi. Bevaqt hayotdan ko'z yumgan, ijodkor yigit, o'sha yillarda “Assalom, O'zbekiston!” teledasturining muharriri bo'lib ishlardi.

Do'st-birodarlari oqibatli ekan, uning she'rlarini kitob qilib chop etishdi. Opasi Saodatning qo'lida ko'rib, ko'zlarim yoshga to'ldi. Ha, bu foni dunyoda barchamiz mehmonimiz, bizdan esa farzandlarimizga ezgu ishlarimiz, yaxshi nomimiz qoladi.

Garchi otalarimiz bu yorug' olamdan o'tib ketgan bo'lsa-da, bizlar ularning an'alarini davom ettiryapmiz. To'y-ma'arakalarda bir-birimizni yo'qlab turamiz. Men va ukam Do'stmamat, marhuma singlim Salima otamizning kasbini davom ettirib, o'qituvchi bo'lib ishladi.

Otamning urushda ko'rgan ko'rgiliklarini jurnalist va muallim Abdivoy Rahim o'zining “O'q yomg'iri ostida” ocherklar kitobida batafsil bayon qilgan.

Qirq oltinchi yilning yozida otam ona qishlog'iga qaytib, otasining “Bolam, ilm o'rgan, ilmi kishi aslo xor bo'lmaydi”, deb aytgan naqliga amal qilib, Qarshi muallimlar tayyorlash bilim yurtiga o'qishga kirdi. Tahsilni tugatib, maktabda boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lib ishladi, uylanib, birin-ketin farzandlari dunyoga keldi.

– Normamat Eshmurodov meni boshlang'ich sinfda o'qitgan, – deya xotirlaydi ijodkor muallim Abdivoy Rahim. – Sinfidagi a'lochi o'quvchi edim, shu sababdan o'qituvchim ba'zan meni yozma ishlarni tekshirishga ko'maklashgani uyiga olib ketardi. O'shanda domlanning endigina uylangan kezlari chog'i, chimildiq bor ekan. Men xuddi kattalardek “Domla, qush qulluq bo'lsin!” deb bexosdan aytib yubordim. O'qituvchim menga ajablanib qaradi va birzum jim qolib, so'ngra jilmayib kulib qo'ydi. Domla menga alloma shoir Abdulla qori Gulshaniyning “Alvido” g'azallar to'plamini nashrga tayyorlashga ko'p yordam bergandi. U kishi maktabda direktor, direktor o'rinbosari bo'lib uzoq yillar faoliyat yuritdi. Domlanning tahriri bilan chiqadigan “Qalampir”, “Maktab ovozi” devoriy gazetalarida u kishi yozgan satirik she'rlar o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otardi.

– Normamat muallim o'ttiz

bash yoshida Samarqand davlat universitetining Filologiya fakultetiga sirtidan o'qishga kimgandi, – deya so'zlaydi shogirdi muallim Lapas Aliqulov. – Men ham talaba edim. Kunlarning birida auditoriyadan qulog'imga tanish ovoz eshitildi. Eshikni ochib qarasam, Normamat domla talabalarga eski o'zbek yozuvidan dars o'tayotgan ekan. “O'zi talaba bo'lsa-yu, qanday dars o'tar ekan?” deb hayron bo'lgandim. Keyin esa domlanning arab alifbosini bilishini eshitdim.

– Otam irodali inson edi. Bilasiz, o'tgan asrning 50-yillarida ham sho'ro zamonasining qama-qamalari to'xtamagan edi, – deya so'zlaydi Normamat muallimning o'g'li Do'stmamat Eshmurodov. – Ayniqsa, otam kabi urushda asirlikda bo'lganlarga ishonchsizlik ko'zi bilan qaralar, qattiq nazorat qilinardi. Ta'qib va tazyiqlardan qochgan otam bir necha yil Chiroqchining olis dashtidagi Sho'rquduq qishlog'ida muallimlik qilgan. Qirq kilometr olisdagi qishlog'iga velosiped bilan hafta-o'n kunda kelib-ketgan.

Otam oilaparvar, tabiatan og'ir, vazmin edi. Onam Momoxol momo bilan sakkiz nafar farzandni tarbiya qildi. Uyimizda hech birimizga qattiq gapirmas, biror nojo'ya ish qilsak ham, o'zimizni alohida chaqirib tanbeh berardi.

Otam ayniqsa, yolg'on so'zlaganni kechirmasdi. Bolalarni, qarindosh-urug'ni deb o'zini

o'tga-cho'qqa urardi. Barchani ilmi bo'lishga undardi. Sayohat qilishni, yurt kezishni yoqtirardi. Qayerga borsa, eng avvalo, kitob do'koniga kirar, dasta-dasta kitob sotib olardi. Ayniqsa, Navoiy, Bedil, Mashrab, Ogahiy she'riyatining shaydosi edi. Abdulla Qahhor va Mirzakolon Ismoilning asarlarini qayta-qayta o'qirdi.

Menga otamdan Eshmurod bobom bir bolali sigirning puliga o'g'liga olib bergan “Qur'on” kitobi yodgorlik bo'lib qoldi. Har gal, muqaddas kitobni varaqlasam, tepamda otam jilmayib, qarab turgandek tuyulaveradi.

Otam adabiyot fani muallimi bo'lsa-da, negadir opam Sofiya kimyo, men matematika o'qituvchisi bo'ldik, ukam Shermamat quruvchi-muhandislikni tanladi.

Ammo oqqan daryo oqar ekan. Nabiramiz Lola hozir bobosining izidan borib, oliygohning O'zbek tili va adabiyoti fakultetida tahsil olib, bugun maktabda dars berish bilan birga yaxshigina she'r va hikoyalar ham yozadi.

Sofiya muallimning bitiklarini o'qib, tartibga soldim. Ha, ustoz muallim, jonkuyar inson

Eshmurod bobo o'g'li Normamat domladan o'chmas xotira, yorqin iz qoldi.

O'rolboy QOBIL,
O'zbekiston
Yozuvchilar uyushmasi
a'zosi



Suratlar sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

Voqeyiy hikoya

ARMONLARDAN YUKSAK ORZU

Mohiniso xola ertalabdan o'zini behol seza boshladi. "Issiq jon deb shuni aytsalar kerak-da, – xayolidan o'tkazdi momo nabiralariga nonushta tayyorlar ekan. – Kecha soppa-sog' edim. Bugun darmonim qurib ketyapti".

– Azamatjoon, o'g'lim, tura qol! Maktabga kech qolasan. Ukalarining ham uyg'ot!

Allaqachon uyg'ongan bo'lsa-da, issiq o'rindan turgisi kelmay, erinchoqlik qilib yotgan bolakay buvisining horg'in tovushidan sergaklandi. Ukalarini turg'izishga shoshildi.

Ular yuz-qo'llarini yuvib, oshxonaga kirishganda Mohiniso xola xontaxta yonidagi yostiqa suyanganicha holsiz o'tirar, ranglari za'faron edi.

– Buvijon, sizga nima qildi, kasal bo'lib qoldingizmi? – momoning bezovta nigohidan uning ahvolini sezdi, Azamatjon.

Momo gapirishga og'iz juftlamay olti yoshli Mohina va to'rt yoshga qadam qo'ygan Xurshidjon buvilarining biqiniga tiqildi. Nabiralarining mehrga tashnaligidan uning ko'zlari yoshlandi. Xayolan iltijo qildi: "Shu go'daklar uchun yana uch-to'rt yil yashashni nasib et, Allohim. Agar menga bir gap bo'lsa..."

– Ukalaringga choy quyib ber, o'g'lim, – ko'zyoshini ichiga yutib, o'zini tetik tutishga harakat qildi momo. – Mendan xavotir olma, yaxshiman. Yuragim salgina bezovta bo'lyapti, xolos. Sen tezda nonushta qilib olgin-da, maktabingga o'tlan. Yo'l-yo'lakay ammannikiga kirib, "Tezda buvimning oldiga borar ekansiz", deb tayingla.

Jiyanining yetkazgan xabaridan onasining sog'lig'i yaxshi emasligini anglagan Muminaxon oyog'ini qo'lga olib, ota hovlisiga shoshildi. U kirib kelganida, havo salqin bo'lishiga qaramay, Mohiniso xolaning yuzidan ter quyular, ko'ngli aynib, o'qchiq tutardi. Uni zudlik ila shifoxonaga yetkazishdi. Shifokorlarning sa'y-harakati bilan ahvoli biroz o'nglandi. Biroq Mohiniso xola umri tugab borayotganini his qilib turardi.

– Qizim, – Muminaxonga iltijoli nigohini tikdi, u o'zini qo'lga olib, – bu dunyo hammaga omonat, mengayam... Turishimdan umrim oxirlab qolganga o'xshaydi.

– Qo'ysangiz-chi, ayajon, – onasining qo'llarini silab yuziga mehr bilan termildi Muminaxon. – Sog'lig'ingiz siz o'ylagandek yomon emas. O'zi keksalar tumov bo'lsa ham darrov o'limni eslashadi. Ammo siz unday emasingiz-ku, ayajon. Uncha-buncha dardni pisand qilmasdiniz. Shuning uchun yomon xayollarni esdan chiqaring, hali uzoq yashaysiz.

– Qani endi, shunday bo'lsa, – momoning mungli nigohini umid uchqunlari bir lahza chaqnatib o'tdi. – O'zimga qolsa, nevaralarim uchun yashagim bor. Shu ko'ngli yarimlarning suyagini qotirib olganimda, armonsiz ko'z yumardim. Nazarimda, unday bo'lmaydi chog'i.



Suratlar sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

aziz insondan ayrilayotganini sezdi. Yig'ib yurgan puliga olgan, buvisi yoqtirgan kunjutli nonni bag'riga bosgancha devorga suyanib unsiz yig'ladi...

Mohiniso xola tuproqqa qo'yilgach, bolalar ancha mung'ayib qoldi. Ayniqsa, kenjatoy Xurshidjon buvisining mehrli bag'rini qumsardi. Muminaxon onasining ma'rakalari o'tgunga qadar jiyanlarini bag'riga olib, o'ksik dillariga malham bo'lib turdi. Biroq ularni har tomonlama to'kis uddalashga ojiz bo'lgani sabab onasi aytganidek, bolalar uyiga joylashtirishga majbur bo'ldi. Azamatjon yosh bo'lsa-da, ammasining holatini tushundi. U bolalar uyiga o'tlanishdan avval ukalari va o'zining kiyimlarini taxlar ekan, ota-onasi va buvisining rasmini avaylagancha kiyimlari orasiga joyladi...

Azamatjon va ukalarining bolalar uyiga ko'nikishi oson kechmadi. Ayniqsa, ularning yoshiga qarab alohida guruhlarda tarbiyalanishi bir-biridan ajralmagan, go'dakligidayoq hayot sinovlariga uchrab, ayriqchiliklari bir-biriga suyanib, yenggan bolakaylar uchun juda og'ir edi. Ular bir joyda bo'lishsa-da, sog'inch azobi bilan yashar, tarbiyachilariga dil dardlarini yetkaza olmasdi.

Bolalar hovliga chiqdi deguncha Azamatjon ukalariga intilardi. Mohina bilan Xurshidjonni ikki qanoti ostiga olib, xuddi kattalardek mehr ko'rsatar, ularga ota-onalari va buvijonlari haqida so'zlab berishdan charchamasdi. Chunki bolakaylar aynan shuni istardi. Gohida esa buvisi aytib bergan, qahramonlari hamisha g'olib chiqadigan ertaklar bilan ularning ko'nglini ko'tarardi. Va albatta, bolalar har kuni ammasining yo'lga ko'z tutishardi.

Tunlari hamma uyquga yotgach, Azamatjon asta turib, ota-onasi va buvisining suratini qo'lga olar, gohida soatlab ular bilan xayolan suhbatlashardi. Ba'zida esa... ba'zida ko'zlaridan yosh quyulardi. Ota-onasidan ayrilgan mudhish kun ko'z oldida bo'y-basti bilan namoyon bo'lardi:

Tiyrakkina, dono bolakay o'shanda olti yoshda edi. Kajavali mototsikllarini qandaydir begona kishilar pachoqlangan holda uylariga olib kelganda, buvisi hushini yo'qotdi. U qandaydir ko'ngilsiz voqea sodir bo'lganini bolalik shuuri ila sezib turgan

bo'lsa-da, ota-onasidan ayrilganini anglab yetmagandi, hali. Ertasiga esa qishloq ahli tong sahardan ularnikiga yig'ildi. Azamatjon bilan ukalarini qo'shnilaridan biri ammasinikiga olib borib qo'ydi. Ikki kun o'tib ammasining qizidan ayasi bilan dadasining fojiasini eshitdi. O'lim degan achchiq ayriliqning ilk xazmini mittigina qalbi bilan his qildi. Bir muddat gapirmas, odamovi bolaga aylandi. Singilchasi

Mohinaning ota-onasini so'rab qilgan xarxashasi, sog'inch iztirobidan yuraklari ezuvchi nolali yig'isi, endigina bir yosh bo'lgan Xurshidjonning ona bag'rini qumsab, kechalari yig'lab chiqishlari, ularga qo'shilib ko'zyoshini tiya olmagan mehribon buvijonisining g'amli nigohi... Hamma-hammasi hozirgidek ko'z oldida muhrlanib qolgan.

Uning beg'ubor qalbiga shirin orzular baxsh etuvchi yana bir xotira borki, uni yodga olish Azamatjon uchun juda maroqli. Bu dadasi bilan qilgan so'nggi

suhbati. O'shanda dadasi Azamatjonga katta bolalardek muomala qilgandi, orzulari bilan qiziqqandi. Balki uch kun o'tib, olamdan ko'z yumishini bilgandir u. O'shanda Azamatjon g'urur bilan "Harbiy bo'laman!" deganda dadasining ko'zlari chaqnat ketgani hamon yodida. Shunda uning boshini silab, "Menga armon bo'lgan orzuni o'g'lim amalga oshirar ekan-da", deb quvongandi. Keyin unga o'zining bolaligi, erisha olmagan orzulari haqida gapirib bergandi: "Men ham xuddi sendek chog'imdan boshlab harbiy bo'lishni orzu qilganman. Lekin dadam erta olamdan o'tgani sabab buving bilan ammanni katta hovlida yolg'iz tashlab keta olmadim. O'qituvchi bo'ldim. Mana endi sen, albatta, harbiy xizmatchi bo'lasan!.."

Azamatjon maktabga borgandan keyingina dadasining nima uchun harbiy ta'lim o'qituvchisi bo'lganini tushundi...

Azamatjon va ukalari bolalar uyiga kelganiga uch yil bo'ldi. Ular bu dargohga ancha ko'nikishdi, bir qadar ulg'ayishdi. Ammali Muminaxon esa buvisi vasiyat qilganidek jiyanlarining holidan tez-tez xabar olib turdi. Imkon bo'lganda hovlilariga olib kelib, ota-onasi, buvilarining hididan, yodidan bahramand etishga harakat qildi.

* * *

Sinovli kunlar ortda qolib, Azamatjon kelishgan, ko'rkam yigit bo'lib qad rostladi. O'zi orzu qilganidek, oliy harbiy ta'lim muassasasiga o'qishga kirdi. Bilim yurtining eng iqtidorli kursantlari safida bo'ldi. Bu orada singlisi va ukasining o'qishiga ham e'tibor qaratdi. U ofitserlik faoliyatini boshlaganda go'zal va dono Mohina tibbiyot instituti talabasiga aylandi. Xurshidjon esa akasi kabi ofitser bo'lish uchun astoydil tayyorgarlik ko'ra boshladi...

Va nihoyat, Azamatjon tug'ilgan xonadon qishloq ahli bilan jamuljam. Yigitning to'yi sabab hammaning chehrasida mamnunlik. Duolar duolarga ulanib, ulug' niyatlar qilinmoqda. Mehmonlar kelin kelishini intizorlik bilan kutishyapti. Mana, "To'ylar muborak" sadolari ostida xonadonga farishta yanglig' kelinchak tashrif buyurdi. Muminaxon xola ko'zida quvonch yoshlari ila kelin-kuyov ustidan sochqilar sochdi...

Bunday hayajonli, unutilmas onlar yillar o'tib, uning hayotida yana bo'y ko'rsatdi. Katta yig'inlar zali harbiylar bilan gavjum. Davlat mukofoti bilan taqdirlanganlar qatorida hammaning nigohida turgan salobatli, qat'iyatli yigitning nomi ham tilga olindi:

– Mayor Turdialiyev Azamatjon Habibullayevich II darajali "Shon-sharaf" ordeni bilan taqdirlandi.

Zalni gulduros qarsaklar egalladi...

Zulfiya YUNUSOVA,
"Vatanparvar"

Armiya va yoshlar



QO'MONDON BILAN UCHRASHUV

Yoshlarni ona yurtga sadoqatli va vatanparvar qilib tarbiyalash davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu maqsadda hamda Qurolli Kuchlar tashkil etilganining 34 yilligi va "Vatanparvarlik oyligi" doirasida Mudofaa vazirligiga qarashli qo'mondonlikda "Milliy armiya – ona yurt qalqoni, tinchligimiz posponi!" shiori ostida qo'mondon va yoshlar uchrashuvi bo'lib o'tdi.



Tadbirda poytaxtimizning Olmazor tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktab-internatining o'quvchi-yoshlari jalb etildi. Dastlab o'quvchi-yoshlar harbiy qismda yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdi. Ular "Adiblar bog'i", "Harbiy tarix" va "Yangi O'zbekiston" muzeylari, mashg'ulot xonalari va sport majmualariga sayohat qilib, milliy armiyamiz hayoti va harbiylarning kundalik faoliyati haqida batafsil ma'lumotlarga ega bo'ldi.

Sayohat davomida yoshlar o'rtasida savatga to'p uloqtirish, qurollarni to'liq va noto'liq qismlarga ajratish, pnevmatik qurollardan o'q otish, turnikda tortilish hamda stol tennisi bo'yicha musobaqalar ham tashkil etildi.

Tadbirning ikkinchi qismida yoshlar qo'mondon bilan uchrashib, samimiy muloqot qilishdi. Muloqot davomida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va Vatanga sadoqat tuyg'ularini yanada rivojlantirish maqsadida videoroliklar namoyish etildi. Davra suhbatida so'zga chiqqanlar milliy armiyamizning xalqaro miqyosdagi nufuzi va o'rni, mamlakatimizda yoshlarga yaratilgan keng imkoniyatlar haqida ma'lumotlar berishdi. Qisqasi, shu kuni yoshlar o'zlarini qiziqtirgan savollariga soha mutaxassislaridan to'laonli javob oldi.

Tadbir yakunida sport musobaqalarida faxrli o'rnlarni egallagan va tadbirda faol ishtirok etgan yoshlarga qo'mondonlikning diplom hamda esdalik sovg'alari topshirildi.

Targ'ibot tadbiri

MILLIY ARMIYA – YANGI O'ZBEKISTON POYDEVORI

"Vatanparvarlik oyligi" doirasida harbiy xizmatchilar tomonidan turli uchrashuvlar va vatanparvarlik karvonlari tashkil etilmoqda. Unda uch avlod vakillari o'zlarining hayot saboqlari va ulkan tajribalari bilan o'rtoqlashmoqda.



Tadbirlar doirasida Navoiy viloyati Navoiy shahrida joylashgan harbiy qism targ'ibot guruhi tomonidan harbiy qismga birlashtirilgan 5- va 18-umumta'lim maktablarida "Milliy armiya – Yangi O'zbekiston poydevori" shiori ostida vatanparvarlik karvoni tashkil etildi.

Qurolli Kuchlar faxriylari, harbiy sportchilar va o'quvchi-yoshlar ishtirok etgan tadbirda milliy armiyamizning nufuzi, unda amalga oshirilayotgan ulkan islohotlar va yoshlarga oid davlat siyosatining amaldagi natijalari haqida so'z bordi.

Tadbir davomida harbiy orkestr jamoasi va Faxriy qorovulning ko'rgazmali chiqishlari tadbirda yanada ko'tarinkilik baxsh etdi.


Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani sinflarida

harbiy qism bosh serjanti tomonidan o'tkazilgan qurol-aslahalarning taktik-texnik tasnifi, ularni to'liq va noto'liq qismlarga ajratish borasidagi mahorat darsi ham yoshlar uchun qiziqarli va taassurotlarga boy bo'ldi.

Xulosa o'rinda aytish joizki, "Vatanparvarlik oyligi" doirasida o'tkazilayotgan bunday ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar yoshlar qalbida Vatanga muhabbat, milliy armiyamizga hurmat va faxr tuyg'ularini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Harbiy xizmatchilar, faxriylar va yoshlar o'rtasidagi bevosita muloqot esa avlodlar davomiyligini ta'minlab, Yangi O'zbekistonni barpo etishda faol, ongli va vatanparvar yoshlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yong'in xavfsizligi

Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarining xavfsizligini ta'minlash, shuningdek kuz-qish mavsumini talafotlarsiz o'tkazish va favqulodda sodir etilishi mumkin bo'lgan ko'ngilsiz hodisalarning oldini olish maqsadida Mudofaa vazirligi qo'shinlarida turli uchrashuv va ko'rgazmali profilaktik tadbirlar o'tkazib kelinmoqda.



HAYOT KAFOLATI

Ana shunday profilaktik tadbirlardan biri Mudofaa vazirligi Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligida ham o'tkazildi. "Yong'in xavfsizligi oyligi" doirasida o'tkazilgan tadbirda Respublika harbiy prokuraturasi xodimi, Toshkent harbiy okrugi davlat texnik nazorati va texnik xavfsizligi boshlig'i va Yunusobod tumani favqulodda vaziyatlar bo'limi katta inspektori ishtirok etdi.

Videokonferens-aloqa shaklida o'tkazilgan tadbirda

so'zga chiqqanlar kuz-qish mavsumida yong'in xavfsizligini ta'minlash, qo'lbola isitish moslamalaridan foydalanmaslik va is gazidan zaharlanishning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar haqida batafsil fikr yuritishdi.

Xuddi shunday tadbir qo'mondonlikka qarashli Navoiy viloyatida joylashgan harbiy qismda ham o'tkazildi. Tadbir avvalida, dastlab yong'in xavfsizligi bo'limi xodimlari tomonidan amaliy va ko'rgazmali mashg'ulot tashkil etildi.

Shundan so'ng harbiy qism madaniyat markazida "Turmushda va kundalik faoliyatda gaz uchqunlari hamda isitish jihozlari xavfsiz foydalanish va yong'in xavfsizligi talablari" mavzusida davra suhbat tashkil etildi.

Unda so'zga chiqqanlar respublikamizda hamda viloyat miqyosida yong'in va is gazidan zaharlanish oqibatida sodir bo'lgan salbiy holatlar va bunday ko'ngilsiz hodisalarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar xususida o'z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Mulohaza

Tahririyatimizga shaxdam qadamlar bilan bir otaxon kirib keldi. Uning vujudidan shijoat va g'ayrat ufurib turardi. Otaxon o'zini tanitib, "Sizlar bilan yigitlar mavzusida gaplashgim keldi", dedi.

YIGIT YIG'LAMASIN DUNYODA

Ne'matjon ota bilan suhbatimiz uzoq davom etdi. U bolaligi, o'spirinlik yillari, Harbiy dengiz flotida 3 yil davomida yigitlik burchini qanday o'taganini so'zlab berdi. U hikoya qilar, ko'zlarida esa ajib bir o't chaqnar edi.

Otaxon har gapida "O'zbek yigiti mard bo'lsin, shundagina u insonlar koriga, Vatan himoyasiga yaraydi", deb takrorlab turdi. Darvoqe, N. Ashurmatovning bugungi kun yigitlari, ertaning posbonlariga ibrat bo'larli fazilatlar ko'p ekan. Ulardan birini siz bilan bo'lishgim keldi.

– Men "Yigit yig'lamasin dunyoda" degan gapni doim takrorlayman, uyda, oila davrasida ham, mahalla guzaridagi gurunglarda ham, to'y-ma'ralalarda ham aytaveraman. Sababi yigit yig'laganini ko'rganman, u shukronalik va

xursandchilikdan yig'lagan edi. Yigit ko'zidan yumalagan bir tomchi yosh toshni eritishga, tog'larni qulatishga qodir ekan, uning ko'zyoshiga guvoh bo'lgan inson qalbi esa tiriklik va o'lik jon o'rtasidagi kurashdan yo vayron, yo obod bo'larkan, – deydi 81 yoshli otaxon.

1965-yilning 7-noyabri. O'shanda otaxon Harbiy dengiz flotida yigitlik burchini o'tayotgan bo'lgan. Ular Neva daryosi uzra bo'lajak bayram paradi uchun so'nggi mashg'ulotga jam bo'lgan. Sovuq havodan etlar junjikkan, ayozdan yuz-u ko'zlar yorilgan payt. Birdan suvning qattiq shovullaganini, kimningdir dodlagani va "cho'kyapti" degan ovozlari eshitiladi. Kemadagilar suvga qarasa, bir

askar yigit goh ko'rinib, goh g'arq bo'lib cho'kayotgan edi. Shunda kuch-quvvatga to'la Ne'matjon o'ylab ham o'tirmay, o'zini suvga tashlaydi. Uning ortidan qutqaruvchi kema tushiriladi. Askar anchagina suv yutib qo'ygan, qolaversa, sovuqdan oyoq-qo'llari muzlab qolgani uchun suza olmas edi. Qahramonimiz amallab uni qutqaruvchi kema tomon olib kelishga va daryoning muz qoplagan sohiliga chiqib olishga muvaffaq bo'ladi.

Suratlar sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

Chor tarafdan "Ofarin, barakalla!" degan xitoblar qatorida "O'zing ham o'lishing mumkin edi-ku, o'zbek!" degan gaplar ham yangraydi. Askarga tezda birinchi yordam ko'rsatiladi va qutqaruvchi Ne'matjonni uning yoniga kiritishadi. Qozoq askar Ne'matjonga qaraydi, uning ko'zlaridan minnatdorlik, tirik qolgani uchun shukronalik yoshi dumalamoqda edi...

– Bu voqeani aslo unutilmayman. O'shanda ham, hozir ham qishloqda tug'ilganimdan, bolalik va o'smirlik yillarim Sirdaryo sohilida o'tganidan faxrlanaman, – deydi N. Ashurmatov.

Inson dunyoga kelibdiki, yaxshilik va yomonlik, mehr va ozor, oqibat va qabohat u bilan yonma-yon yuradi. Uning qay biri vujudingizga in quradi, bu o'zingizga bog'liq.

– Mardlik va shijoat ona suti bilan oiladagi tarbiya va ibrat orqali bizga o'tadi. Bu xislat birgina menda emas, hamma bor, muhimi, uni o'z o'rnida ishlata bilish va kimgadir chin dildan yordam qo'lini uzata olishda. Bugungi yoshlar kelajak egalari, yigitlarimiz chindan ham sog'lom, baquvvat va Vatan koriga yaraydigan otashqalb, fidoyi jonlardir. Vujudingizda yashiringan yolg'inni, jasorat va mardlikni yuzaga chiqara bilishga odatlaning, zero sizning bu harakatingizdan ota-onangiz, butun xalq bahra olsin, – deydi otaxon.

Ne'matjon otaning hikoyasini tinglab, bugunning yoshlariga, xususan yigitlariga qarata yigit ko'zi va qalbi hamisha kulib, yonib tursin, o'zbek yigitiga yig'i yarashmaydi, degimiz keladi. Siz doimo Vatan xizmatiga shay turing. Zero yigit yig'lamasin dunyoda.

O'ktamxon AKBAROVA,
"Dang'ara" gazetasi
bosh muharriri

Xalqaro hamkorlik

E'TIBORDA haydovchilar tayyorlash MASALASI

Germaniyaning "Askania Future GmbH" kompaniyasi rahbari Ingo Jung boshchiligidagi delegatsiya "Vatanparvar" tashkiloti Toshkent shahri kengashi tasarrufidagi sportning texnik va amaliy turlari markaziga tashrif buyurdi.



Uchrashuv mobaynida xorijlik mutaxassislar "Vatanparvar" tashkiloti o'quv muassasasida turli toifalarda avtomototransport haydovchilarini tayyorlash jarayoni, mavjud moddiy-texnik baza, o'quv dasturlari va haydovchilik kasbini o'rgatishga mo'ljallangan innovatsion texnologiyalar bilan tanishdi.

Delegatsiya a'zolari "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi rahbariyati bilan suhbat davomida Germaniyada vaqtincha faoliyat yuritish uchun o'zbekistonlik fuqarolar orasidan turli toifalardagi haydovchilarni tayyorlash yuzasidan aniq takliflarini ilgari surdi.

Jumladan, nemis diyori uchun 2026-yilning oxiriga qadar

500 nafar tirkamali yuk avtomobillari va yana 500 nafar yo'lovchi tashuvchi transport vositalari haydovchisini tayyorlab berish bo'yicha "Vatanparvar" tashkiloti bilan kelishuv imzolash taklif etildi. Bundan tashqari, kelgusida Germaniyada ishlash istagida bo'lgan o'zbekistonliklarni tashkilot o'quv muassasalarida 200 dan ortiq yana boshqa kasb-hunarga tayyorlash rejalashtirilayotgani ma'lum qilindi.

Mazkur shartlarni o'z ichiga olgan ikki tomonlama kelishuv O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi vositachiligida tuzilishi qayd etildi.

Ochiq eshiklar kuni

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan "Vatanparvar" tashkiloti Buxoro viloyati kengashi tasarrufidagi Romitan tumani o'quv sport-texnika markazida ochiq eshiklar kuni tashkil etildi.



Yoshlar "VATANPARVAR" TASHKILOTIDA

Yoshlarni tashkilot faoliyati bilan yanada yaqinroq tanishtirish, ularda harbiy xizmatga hurmat tuyg'ularini va milliy armiyamiz bilan faxrlanish hissinini kuchaytirish kabi maqsadlarni o'z ichiga olgan ushbu tadbir "Vatanparvar" tashkiloti – mening tanlovim!" shiori ostida o'tkazildi.

Tuman mudofaa ishlari bo'limi bilan hamkorlikda tashkil etilgan tadbirda umumta'lim maktablarining "Vatan tayanchi" otryadlari a'zolariga "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan aholini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular orasida sportning texnik va amaliy turlarini ommalashtirish hamda mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumotlar berildi.

Tadbir davomida yoshlar o'rtasida "AK-74" avtomatini qismlarga ajratish va yig'ish, pnevmatik quroldan o'q otish, arqon tortish bo'yicha musobaqalar hamda "Yo'l harakati qoidalarini bilimdoni" ko'rik-tanlovi o'tkazilib, g'oliblar turli esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

O'qish va jamoat ishlarida alohida namuna ko'rsatayotgan o'quvchi-yoshlar "Vatanparvar" tashkilotiga a'zo qilinib, ularga tegishli a'zolik guvohnomalari topshirildi.

Ayniqsa, tashkilotning motokross, karting, duatlon, pnevmatik quroldan o'q otish, aviamodel, raketamodel kabi sportning texnik va amaliy turlari bo'yicha tashkil etilgan seksiyalar ko'rgazmalarining namoyish etilishi tadbirga ko'tarinki ruh bag'ishladi.

Taqdir so'qmoqlari

UMRNING

har lahzasi go'zal

Bayram arafasi. Avtobusda odam siyrak. Yangi yil ta'tillari boshlangan. Oyna tomondagi o'rindiqlarda joylashib, shahar manzaralarini kuzatib ketyapman. Tanish, yoqimli musiqa yangray boshladi. Yulduz Usmonovning "Muhabbat" qo'shig'i... Ichimda qo'shiq so'zlarini takrorlayman. Avjida kimdir jo'r bo'ladi. Haydovchi ekan: "Kimda xato, kimda ayb, bilmayman, bilmayman. Yodga tushsang, yoding tildan qo'ymayman, qo'ymayman..."

Haydovchining jo'rovzligidan kayfiyatim ko'tarildi. Yuzlarimga tabassum yugurib, o'z-o'zimdan jilmayayotganimni sezib qoldim.

Insonni eng oddiy narsalar ham sevintira olar ekan.

YO'LDA

– Dadajon, yo'lga chiqdim, duo qiling. Zeriksangiz, jo'ralarimgizni uyga chaqiring. Qishloqda ko'p qolib ketmang.

Haydovchi yigirma besh yoshlardagi yigit ekan. Ona, ona, deb gapga tutadi. Men esa haydovchi bilan gaplashishdan o'zimni tiyaman. Uni avaylayman. Yo'lga chalg'itgim kelmeydi. U juda quvnoq. Yo'lovchilarni zeriktirmaslik uchun musiqani balandlatib qo'ydi. Chunki yo'l uzoq.

Ora-orada kim bilandir gaplashayotganini sezib qoldim. Telefonda emas, orqadagi yo'lovchilar ham jim. Qo'shiqlar orasidagi dialoglarga javob qilayotgan ekan: "Endi kech..." degan hasratli gapga "Nima qilay kech bo'lsa" deganidan bilibman. Xuddi betoqat tomoshabin zerikarli seriallar ichiga kirgudek bo'lib, "ayt, aytsang-chi", deya qo'shilib ketishiga o'xshaydi. Kulgim qistadi.

Shu kuni uzoq yuridik. Yo'l juda tirband edi. Nihoyat, Toshkentga kirib keldik.

– Dadajon, shahardaman, yetib keldim. Xavotir olmang, yaxshi dam oling. Sizni yaxshi ko'raman...

Uning oxirgi gapi meni to'lqinlantirib yubordi. Unga sinchiklab razm soldim. Bolamdan ham yosh yigit. Rostini aytsam, bunday dildorlik qizlarga xos deb bilar ekanman.

Qachonlardir mening ham otam bor edi... Uni juda sevar edim. Ammo... negadir unga yaxshi ko'rishimni heech aytmagan ekanman. Nega?! "Sizni yaxshi ko'raman!" deyish qiyinmidi? Nega bir marta bo'lsa ham aytmadim?

Ba'zan yoshlar ham kattalarga saboq berar ekan.

Odamlar, bir-biringizni tiriklikda e'zozlang. Mehr, muhabbat, uzrxohlik izhorlari – tiriklikning ne'mati, ko'rki. YAXSHI KO'RAMAN, deb ayting, ota-onangizga, opa-singilga, aka-ukaga, aziz insonga!

LAHZALAR

Mashinadan tushar-tushmasimdan jajji nabiram bag'rimga otildi: "Buvi, buvi..." Uni mahkam bag'rimga bosar ekanman, hamma narsani unutdim. Uzundan uzun yo'l charchog'iga qo'shilgan kimdir qalbimni og'ritgani, kimnidir yoqtirmasligim, xastaligim, armonlarim... Shu lahzalar dunyoda men va Alparslon bor edik.

Bilasizmi, shunday lahzalar borligi uchun hayot go'zal, yashamoq go'zal!

QIZIL ETIKCHA

Jamila muallim pensiyaga chiqqanidan so'ng o'zini yolg'iz his eta boshladi. Uy, hovli, ko'chalar jimjit tuyulardi. Yo'q, ayol o'ylaganidek jimjit emas edi. Hamma joyda hayot qaynardi. Uy yumushlari nabiralaridan ortmas, ko'chaga chiqib, bekorch xotinlarning suhbatiga qo'shilgisi kelmasdi. O'zini kimsasiz orolga tushib qolgandek, qandaydir qimmatli narsasini boy bergan kishidek his etardi.

Hech qayerga sig'may qoldi. Nahotki keksalik shunday bo'lsa? Hech kimga kerak bo'lmay qolsang? Endi maktabga bormaymanmi?! Charchagani yolg'on edimi? Men tengilar vaqtlarini qanday o'tkazar

ekan? Bunday o'ylardan qutulgisi kelsa-da, chorasiz qoldi. Shovqin-suronli, qalamlar, qog'ozlar shitiri, bittagina harf o'rganishdagi quvonch, hijjalab o'qiyotgan bola ovozi, quvnoq qiyqiriqlar, uni onasi kabi biladigan kichkintoylar – mana unga nima kerak. U maktabni, bolalarni qo'msardi.

Yo'q, u bolalarsiz yashay olmas ekan. Bir qarorga keldi. Uydagi kutubxonasida bolalar bilan shug'ullanadi. Maktabda yaxshi o'zlashtira olmaydigan bolalarga yordam beradi. Darrov bolalar ham topildi. Ota-onalar maktabda yaxshi o'qiyotgan bolalarini ham uning qo'liga topshirgilari kelar edi. Ammo Jamila muallim o'zlashtira olmayotgan bolalarni tanladi.

Uning hayotiga yana rang kirdi. Shunday kunlarning birida kelinlari gap topib keldi. Yo'l yoqasidagi qarovsiz shiypinni shaharlik bir boy sotib olgan emish. Hashamatli imorat qurilishi boshlanibdi. Yangi yilga qadar bitkazilarmish. Jamila aya buni eshitib, "Yaxshi ish bo'libdi, tashlandiq bo'lib, ko'zga xunuk ko'rinar edi, obod bo'lgani yaxshi", dedi. Uning uchun qaysidir boyning qurilishi emas, bolalar ta'limi muhim edi.

Rostdan ham bayram arafasida o'sha hashamatli imorat bitdi. Negadir devor o'rniga chiroyli panjara bilan o'raldi.



Suratlar sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

Bog' oralatib chiroyli yo'lakchalar qurildi. Xuddi davlat idoralariga o'xshab ketadi. Eng qizig'i bayram kuni bo'ldi. Bu bino hech kimning shaxsiy mulki emas, qishloq kutubxonasi ekan. Ochilish marosimiga butun qishloq yig'ildi. Jamila muallim ham bordi. Katta shahardan ham mehmonlar kelibdi.

Mehmonlar, yaqin oradagi qishloqlardan kelgan oqsoqollar saxovatli insonni alqadi, qishloq ahlini qutladi. So'ng ko'hlikkina, mo'ynali paltolari yarashig'liq ayol so'z oldi. Hokimiyatdan kelgan bo'lsa kerak. U odamlar qarshisida bir muddat hayajonlanib turdi-da, so'z boshladi:

– Aziz hamqishloqlar, meni eslolmasangiz kerak. Eski tegirmon yonida yashaganmiz. Men rahmatli Normat traktorining qizi, Qunduzoyman. Otam olamdan o'tganida besh yashar edim. Onam dalada ishlardi, uch jonni yedirib-ichirish unga oson bo'lmagan. Yupun edik. Ammo kimdir bizga yordam berar edi. Tongda eshigimiz tagiga qo'yib ketilgan oziq-ovqat, kiyim-kechaklarni ko'rib, dunyo topgandek sevinib ketganlarimiz hamon yodimda. Onamning ko'zyoshlari ham... Biz, yetimlarni o'zini ko'rsatmay boshimizni silagan inson hozir orangizda.

Odamlar guvullashib qoldi. Shu payt ayolning tiniq va o'ktam ovozi yangradi:

– Aziz ustoz, Jamila ona, farishtaginam, yonimga keling, bugun bu yerga sizni tavof qilgani keldim.

Muallim qarshisida tiz cho'kayotgan Qunduzoyni qo'lidan tutib, bag'riga bosdi. Ikkovlari bir muddat shunday turib qoldilar. Odamlar ham jim edi. Ayol tezgina o'ziga kelib, yana davom etdi:

– Jamila onamizni juda yaxshi ko'rar edim, bir kun ham darsdan qolgim kelmasdi. Qish kunlarining biri edi. Kalishim eskitib qolgan, oyog'im jiqqa ho'l, shu holda maktabga keldim. Aziz ustoz ahvolimni ko'rib, o'zi o'tiradigan stulga meni o'tqazdirib, oyog'imdan kalishimni, ho'l paypog'imni oldi-da, dastro'moli bilan oyoqchalarimni artib, boshidagi ro'moli bilan oyoqlarimni o'rab qo'ydi. Paypog'im va teshilib qolgan kalishimni pechka yoniga quritib qo'ydi. Dars tugaganida Jamila onamning katta sinflarda o'qiydigan o'g'illari meni galma-galdan ko'tarib uyimizga olib borib qo'ydi. Shu kuni kechda isitmam chiqib ketdi, kechasi bilan alahlab chiqibman. Tongda uyg'onsam, yonimda qizil etikchalar turibdi. Shu qadar sevindimki, etikchani kiysam uchib ketadigandek. Onamdan qachon olib keldingiz, deb so'rasam, tunda farishta tashlab ketganini aytdi. Bizni ko'p o'tmay tog'am o'z uyiga ko'chirib ketdi. Farishtaning kimligini ko'chib ketayotgan kunimiz onam aytib berdi.

Jamila ona, o'sha farishta siz edingiz, men sizni hech unutmadim. Qarshingizda sizga munosib shogird sifatida chiqishga harakat qildim. Uyingizda bolalarga qo'shimcha mashg'ulotlar o'tayotganingizdan xabarim bor. Endi uyingizda emas, mana shu kutubxonada mashg'ulot o'tasiz, bu mening Sizga sovg'am, o'sha qizil etikcha uchun, oyoqlaringiz o'rab qo'yganingiz ro'mol uchun, katta oilangizdan ortib, uch yetimning boshini silaganingiz uchun...

Ayol shularni aytib Jamila muallimni quchoqlab oldi.

Bu bir boshqacha bayram edi, qorli-qirovli, sovuq, ammo ko'ngillarni haroratga to'ldirgan bayram.

Inobat NODIRSHOH

STRESS – KO'RINMAS, AMMO KUCHLI XATAR

Yog'ochni arra qanday arralasa, stress (g'am-g'ussa, ruhiy zo'riqish, dard) ham inson sog'lig'ini xuddi shunday kemiradi. U ko'plab kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi, mavjud xastaliklarning kechishini og'irlashtiradi. Stressning ta'siri har xil darajada namoyon bo'ladi: u qisqa muddatli bo'lishi mumkin yoki yillar davomida insonni ich-ichidan yemirib borishi mumkin.

Stressning inson organizmiga ta'sir qilish mexanizmi kanadalik olim Konrad Selterski tomonidan ilmiy jihatdan chuqur o'rganilgan. U stressga javob sifatida endokrin tizim, ya'ni gormonlar ishlab chiqarishning keskin kuchayishini asoslab bergan. Biroq stress paytida modda almashinuvining jadallashuvi, organizmda energetik zaxiralarning tez sarflanishi va natijada oshqozon-ichak, yurak-qontomir tizimlari hamda immunitetning zaiflashishi kabi oqibatlar uzoq vaqt yetarlicha e'tibordan chetda qolgan.

Stress holatida yurgan inson organizmi harakatsiz turib, motorini qizdirib qo'ygan avtomobilga o'xshaydi: harakat yo'q, lekin yonilg'i sarf bo'ladi, mexanizmlar eskiradi. Albatta, motorni qizdirish zarur, ammo buni doimiy ravishda shunday qilish oqibatida u ishdan chiqadi. Inson ham shunday: doimiy stressda yashash hayot energiyasini behuda sarflash demakdir.

STRESS QAYERDAN PAYDO BO'LADI?

Stress manbalari juda ko'p va ularni shartli ravishda tashqi va ichki omillarga ajratish mumkin.

Tashqi stress insonlar o'rtasidagi munosabatlarda (*haqorat, nohaqlik, tuhmat*), ishxonadagi bosim, jamoat joylaridagi nizolar, shuningdek tabiiy ofatlar – zilzila, yong'in, suv toshqini kabi holatlar natijasida yuzaga keladi.

Ichki stress esa insonning o'zida shakllanadi. Hasadgo'ylik, vijdon qiynalishi, kek saqlash, armon, moddiy yo'qotishlar, katta mas'uliyat oldidan o'z kuchiga ishonmaslik, kelajakka nisbatan xavotir va ishonchsizlik shular jumlasidandir.

Bu omillarning har biri muayyan sabablarga ega. Hasad – noto'g'ri tarbiya oqibati, vijdon qiynalishi – o'tmishdagi xatolar bilan yuzlasholmaslik, o'z kuchiga ishonmaslik bilim va kasbiy mahorat yetishmasligi, ertangi kunga ishonchsizlik esa ijtimoiy o'zgarishlarga moslasha olmaslik natijasidir. Oxir-oqibatda bu muammolarning barchasi ta'lim va ma'naviy tarbiya masalasiga borib taqaladi.

BILIM DARAJASI VA STRESSGA MUNOSABAT

Aytishlaricha, insonlar bilim va tafakkur darajasiga ko'ra to'rt guruhga bo'linadi.

Birinchi guruh – yuksak ma'naviyat va donishmandlik sohiblari: payg'ambarlar, avliyolar. Ular sabr-toqatli, kechirimli bo'lishni targ'ib etgan. Ular haqoratga haqorat bilan javob bermagan, chunki sabab va oqibatni yaxshi anglagan. Aqlli kishi ilon chaqqani uchun ilondan emas, balki uni payqamagani uchun o'zidan norozi bo'ladi.

Ikkinchi guruh – ilm, siyosat, san'at va madaniyatda yuksak cho'qqilarni egallagan shaxslar. Ular ham stressni janjal bilan emas, ijod,


islohot va g'oyalar orqali yenggan. Navoiy, Umar Xayyom, Mikelandjelo, Rafael asarlari bunga yorqin misoldir.

Uchinchi guruh – oddiy, tarbiyali, ziyoli insonlar. Ular muomala madaniyati, diplomatiya va sabr orqali stressni yumshatishga qodir. Ular bilan muloqot insonga ruhiy yengillik bag'ishlaydi.

To'rtinchi guruh esa ta'lim va tarbiyadan yetarli ulush ololmagan, muomala madaniyatidan mahrum shaxslardir. Ular ko'pincha stress manbai bo'lib, janjal, zo'ravonlik va buzg'unchilikka moyil bo'ladi. Afsuski, jamiyatda aynan shunday insonlar ko'payganda stress ommaviy tus oladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, stress faqat tibbiy yoki psixologik muammo emas, balki **ijtimoiy, ma'naviy va ta'limiy masaladir**. Uni faqat dorilar yoki vaqtinchalik choralar bilan yengib bo'lmaydi. Stressga qarshi eng kuchli qalqon bilim, ma'naviyat, to'g'ri tarbiya va sog'lom muloqot madaniyatidir.

Jamiyatda ma'naviy yetakchilar, ziyolilar va ongli insonlar qanchalik ko'p bo'lsa, stress shunchalik kamayadi, inson umri uzayadi, hayot sifati yaxshilanadi. Aks holda,



stress oddiy ruhiy holat emas, balki jamiyatni ich-ichidan yemiruvchi xavfli illatga aylanadi. Shunday ekan, inson o'z salomatligini asrashni istasa, avvalo ruhiy muvozanatini saqlashni, stress manbalarini anglashni va ularga to'g'ri munosabat bildirishni o'rganishi kerak. Chunki sog'lom hayot tinch ruhdan boshlanadi.

Tibbiy xizmat podpolkovnigi
Jamoliddin ABDUSAMATOV,
Abduraim RAHIMOV,
tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

“QAMAL”

TERMINI YASAMAMI?

Mustaqillikka erishganimizga ham 34 yildan oshdi. Mo'ysafid tarix oldida ko'z yumib-ochgan kabi bir muddat hisoblangan shu qisqa davrda mamlakatimizda hayotining barcha jabhalarida asrlarga tatigulik ishlar amalga oshirildi. Jumladan, davlat tili maqomini olgan o'zbek tili chinakam rivojlanish yo'liga chiqdi.

O'zbekiston davlati ilk qadamlaridanoq o'zining til siyosatini respublikaning mustaqilligi, madaniy hamda mafkuraviy platformasining asosiy bo'g'inlaridan biri deb bildi va uni kerakli qonun va qarorlar bilan mustahkamladi.

Jumladan, 2019-yilning 21-oktabrida qabul qilingan “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi, 2020-yil 20-oktabr kuni qabul qilingan “Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmonlari, shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-oktabrda e'lon qilingan “Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori olamshumul tarixiy voqeadir.

Xo'sh, o'tgan yillar davomida davlat tilining takomili, taraqqiyoti va tatbiqi borasida, xususan o'zbek harbiy terminologiyasi borasida mamlakatimizda qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

Har bir millat tili terminologiyasi o'z tarkibiga ijtimoiy hayotning barcha sohalariga oid maxsus leksikani jam etadi. Bu holat o'zbek tili terminologiyasida ham to'liq kuzatiladi. Terminologiyaning shakllanishi o'ziga xos qonuniyatlar asosida ro'y beradi. Bunda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy holati, taraqqiyoti muhim sanaladi. Bir so'z bilan aytganda, terminologiya bu millatning o'tmishi va bugunini ko'rsatuvchi daliliy ashyolardan biridir.

Olib borilgan tadqiqotlardan ma'lumki, o'zbek tili terminologiyasi tarixi juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Bu tarixiy haqiqatni birgina o'zbek tili harbiy terminologiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ham tasdiqlaydi. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar o'zbek tili harbiy terminlari oddiy terminlar yig'indisidan muayyan bir tizim darajasigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tganini, shakllanish ibtidosida, birinchi galda, o'z qatlam birliklarining o'rni beqiyos ekanini ko'rsatadi.

Ana shunday istilohlardan biri hozirgi o'zbek harbiy terminologiyasidan muqim o'rin olgan **qamal** termini xususida fikr yuritamiz.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da “qamal” terminiga shunday izoh berilgan:

“Qamal – shahar, qal'a, armiya va shu kabilarni taslim bo'lishga majbur etish maqsadida dushman qo'shinlarini qurshab olish va shunday holatda saqlash; qurshov, muhosara” (O'TIL, 2023, 38-b.).

Misol: yetmish kunlik bir **qamal**, yetmish kunlik chetdan va eng ozi qishloqlardan munosabatni uzib turish albatta Toshkentni bo'ldirib qo'ygan edi (A. Qodiriy. “O'tkan kunlar”).

Albatta, mazkur termin izohi 1981-yilda Moskvada nashr qilingan nusxasidagi izohga qaraganda mukammalligi bilan ham ahamiyatli. Faqat izohdagi **musohara** termini hozirgi o'zbek tilida iste'molda emas, uni olib tashlash maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, mazkur termin qadimgi turkiy, eski turkiy, eski o'zbek tilida ham harbiy tushunchani ifodalashga xizmat qilgan va qabal shaklida muomalada bo'lgan ekan:

“Ikki aykim qabal erdi anda” (“Shayboniynoma”, 43-b.).

Mazkur termin xuddi shu ma'noda Navoiy asarlarida ham, “Boburnoma”da ham ishlatilgani ma'lum:

“Xisrav shoh bo'lak lang va lavandni yig'ib yaxshi yomon mingcha kishisi bila Qunduzni **qabamoq** doiyasi bila kelib bir ikki yig'och Xoja Chortoqqa tushdi” (“Boburnoma”, 140-b.).

“Qamal” termini tarixiga nazar tashlar ekanmiz, uning yasama ekani ma'lum bo'ladi. Mazkur termin til tarixida dastlab **“qa”** shaklida bo'lib, **-ba/-ma** affiksalarining qo'shilishi keyingi davrlarning mahsulidir. Tilimiz tarixida aytmoq so'zi **ay**, sanamoq so'zi **sa**, sindirmoq so'zi **si**, bog'lamoq so'zi **ba** shaklida bo'lgani fikrimizni tasdiqlaydi.

Hozirgi kunda **“qamal”** terminining asosi o'zbek, qozoq, qirg'iz tillarida **“qama”**, turkman tilida **“qaba”**, ozar tilida **“g'apa”** shaklida ishlatiladi (Юнусалиев, Киргизская лексикология. 1959, стр. 67–127).

O'zbek tili tarixi bo'yicha taniqli tilshunos H. Dadaboyevning “Проблемы лексики староузбекского языка” nomli kitobida ham mazkur harbiy

“Qamal – shahar, qal'a, armiya va shu kabilarni taslim bo'lishga majbur etish maqsadida dushman qo'shinlarini qurshab olish va shunday holatda saqlash; qurshov, muhosara” (O'TIL, 2023, 38-b.).

termin “qaba” (*qama*) fe'lga – I affiksini qo'shish orqali yasalganligi hamda qamal, qurshov ma'nolarini ifodalashi ta'kidlangan.

Shu o'rinda M. Koshg'ariyning “Devonu lug'oti-t-turk” asariga murojaat qilamiz. Lug'atda **qa(p)** leksemasi idish, qop ma'nolarini ifodalashi aytilgan. Shu bilan birga, **“qab”** termini quyidagi:

1) qap – yopmoq, ushlamoq, qo'lga olmoq;

2) qap – g'ilof, idish, qop kabi ma'nolarni ifodalashi ko'rsatilgan (M. Koshg'ariy, DLT. I, 1960–1963. 194-b.).

Xulosa qilib aytganda, sinxron nuqtayi nazardan tub deb qaralayotgan “qamal” termini aslida (*tarixan*) yasama bo'lib, qama fe'lga – I affiksini qo'shish bilan hosil bo'lgan: qama+I = qamal.

Eng asosiysi, umumturkiy bo'lmish **“qamal”** termini tilimiz tarixidan hozirgacha harbiy tushuncha ifodalab kelmoqda.

Hamid YODGOROV,
filologiya fanlari nomzodi,
dotsent, harbiy atamashunos



Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida

TADBIRLAR SAVIYASI YUKSALMOQDA



**O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi
“Vatanparvar” tashkilotining Xorazm viloyati kengashi tasarrufidagi
Xiva shahri 2-o‘quv sport-texnika markazi nodavlat ta’lim muassasasi
jamoasi yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida
shahar hokimligi, mudofaa ishlari, maktabgacha va maktab ta’limi
bo‘limlari, Yoshlar ishlari agentligi va boshqa ko‘plab tashkilotlar
bilan hamkorlikda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar uyushtirishga alohida
e’tibor qaratmoqda.**



Xususan, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan o'tkazilayotgan "Vatanparvarlik oyligi" doirasida "Milliy armiya – ona yurt qalqoni, tinchligimiz posboni!" shiori ostida hamda "Mard askar – yoshlarga namuna!", "Askar otionalarini sharaflaymiz", "Vatanga tayanchman" mavzularida turli tadbirlar, uchrashuv va davra suhbatlari hamda sport musobaqalari tashkil etilmoqda. Bu o'tkazilayotgan tadbirlarda madaniyat va san'at arboblari, sportchilar, keng jamoatchilik vakillari, harbiy xizmatchilar hamda mehnat faxriylari faol ishtirok etmoqda.

– “Vatanparvarlik oʻyiligi” davomida oʻquvchi-yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida tashkilotimizda ochiq eshiklar kuni tashkil etildi, – deydi OʻSTM NTM direktori Davronbek Yuldashev. – Shuningdek, “Ma’naviyat karvonlari” tashrifini amalga oshirish, hududdagi umumta’lim maktablaridagi “Vatanparvarlik darslari”ning oʻtkazilgani ham oylik davomidagi asosiy yumushlarimizdan boʻldi.

– Bundan tashqari, muhim sana munosabati bilan o'quvchi-yoshlar ishtirokida an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan o'q otish bo'yicha

musobaqa ham tashkil etildi, – deydi tashkilot mutaxassisi Nodira Azatova. – Qizg'in bahslar natijalariga ko'ra, 1-o'rin 5-umumta'lim maktabi jamoasiga nasib qildi. Ikkinchi o'ringa 19-umumta'lim maktabi jamoasi munosib deb topildi. 3-o'rinni esa 28-umumta'lim maktabi merganlari egalladi. G'olib va sovrindorlarga tadbir tashkilotchilari tomonidan diplom va esdalik sovg'alar topshirildi.

Hudud yoshlarining bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida markaz qoshida "Havo miltig'idan o'q otish", "Yozgi biatlon" va "Duatlon" kabi seksiyalar faoliyat yuritmoqda hamda ularga 50 nafarga yaqin iqtidorli yosh jalb etilgan.

Ayni paytda mazkur tashkilotda ham ommaviy kasb xodimlarini tayyorlash ishlari ham yaxshi yo'lga qo'yilgan. Shu kunlarda bu yerda "A", "B", "BC", "BE", "CE" toifali haydovchilar tayyorlanmoqda. Haydovchilikka nomzodlarning kasb-hunarlarini puxta egallab olishlari uchun yangi-yangi zamonaviy rusumdagi o'quv-mashq avtomobillari olib kelindi.

Albatta, tashkilotdagi bu kabi imkoniyatlar kelgusida tinglovchilarning malakali haydovchilar bo'lib shakllanishida muhim o'rin tutadi.

“Vatanparvar” tashkiloti Xiva shahri 2-o‘quv sport-texnika markazi nodavlat ta’lim muassasasi jamoasi barchangizni mamlakatimiz Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi va 14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan chin dildan muborakkbod etadi.

Shu aziz Vatanga, xalqimiz xizmatiga doimo shay bo'lib, ozod va obod yurt istiqboli uchun yashash hamda xizmat qilishda zafar yor bo'lsin!



Akbar ALLAMURODOV

REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA
REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA

Oylik doirasida

VATANPARVARLIK RUHI YURT BO'YLAB YOYILMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan Markaziy harbiy okrug tasarrufidagi Jizzax, Samarqand, Kattaqo'rg'on va Navoiy garnizonlarida keng qamrovli, mazmunan boy va yuksak ruhdagi vatanparvarlik tadbirlari izchil davom etmoqda. Ushbu tadbirlar milliy armiyamizning jamiyat hayotidagi o'rni, uning yurt tinchligi va xalq osoyishtaligini ta'minlashdagi beqiyos xizmatlarini keng targ'ib etishga xizmat qilmoqda.

"Vatanparvarlik oyligi" doirasida tashkil etilgan tadbirlar nafaqat harbiy xizmatchilar, balki keng jamoatchilik, ayniqsa yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat, milliy g'urur va fidoyilik tuyg'ularini mustahkamlashga qaratilgan bilan alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu munosabat bilan Markaziy harbiy okrug tomonidan ommaviy axborot vositalari vakillari uchun press-tur tashkil etilib, jurnalistlar harbiy qism va garnizonlarda yaratilgan shart-sharoitlar, harbiy xizmatchilarning jangovar va ma'naviy tayyorgarligi, yoshlarga qaratilayotgan tarbiyaviy ishlar bilan yaqindan tanishdi.

Oylik doirasida o'tkazilayotgan "Sog'lom hayot uchun 5 000 qadam!" shiori ostidagi yugurish va yurish marafonlari sog'lom turmush tarzini targ'ib etish bilan birga jismoniy va ma'naviy barkamollikni uyg'unlashtirishga xizmat qilmoqda. "Milliy armiyamiz – ona yurt qalqoni, tinchligimiz posboni!" shiori ostida tashkil etilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar esa ishtirokchilarda armiyaga bo'lgan hurmat va ehtiromni yanada oshirmoqda.

Shuningdek, vatanparvarlik festivallari, "Vatanparvarlik soati", "Bizning faxrimiz va qahramonimiz", "Millat fidoyilari" mavzularidagi uchrashuvlar tadbirlar mazmunini yanada boyitmoqda. Ushbu uchrashuvlarda faxriy harbiy xizmatchilar, xizmat burchini sharaf bilan ado etgan jasur insonlar o'z hayotiy tajribalari, mardlik va sadoqatga yo'g'rilgan xotiralarini bilan o'rtoqlashdi. Bu esa yoshlarda Vatan oldidagi burch va mas'uliyatni chuqur his etishga undamoqda.

"Milliy armiyamiz – Yangi O'zbekiston poydevori" shiori ostida o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, "Harbiy-vatanparvarlik karvoni", "Rahbar va yoshlar" mavzusidagi ochiq muloqotlar yoshlarning fikr va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ularni har tomonlama yetuk shaxs etib tarbiyalashga qaratilgan bilan e'tiborlidir. Viloyat Faxriylar kengashi a'zolari ishtirokida tashkil etilgan "Uch avlod uchrashuvi" esa kecha, bugun va ertani bog'lovchi ma'naviy ko'priq vazifasini o'tadi.

Bundan tashqari, "Armiya – jasorat, matonat va bilim maskani" mavzusidagi davra suhbatlari, "Mard askar – yoshlarga namuna" shiori ostida o'tkazilgan tadbirlar hamda "Temurbeklar" harbiy sport musobaqalari yoshlarning jismoniy chiniqishi, intizomi va jamoaviylik ruhini mustahkamlashga xizmat qildi. Ushbu musobaqalarda ishtirok etgan o'g'il-qizlar o'z bilim va salohiyatlarini namoyon etib, kelajakda Vatan himoyachisi bo'lishga intilishlarini ifoda etdi.

Tadbirlar davomida Markaziy harbiy okrug va garnizonlardagi mas'ul ofitserlar, faxriylar, mahalla faollari, oliy ta'lim muassasalari talabalari, o'quvchi-yoshlar hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari faol ishtirok etmoqda. Bu esa vatanparvarlik g'oyasi jamiyatning barcha qatlamlarini qamrab olayotganini, u umumxalq qadriyatiga aylanib borayotganini yaqqol namoyon etadi.

Markaziy harbiy okrug tasarrufidagi garnizonlarda o'tkazilayotgan

vatanparvarlik tadbirlari o'z mazmuni, qamrovi va ta'sirchanligi bilan jamiyat hayotida muhim ma'naviy voqelikka aylanmoqda. Ushbu tadbirlar nafaqat Qurolli Kuchlarimiz tashkil etilganining 34 yilligini munosib nishonlashga, balki milliy armiyamizning yurt tinchligi va xalq osoyishtaligini ta'minlashdagi muhim o'rni keng targ'ib etishga xizmat qilmoqda.

Eng muhimi, "Vatanparvarlik oyligi" doirasidagi tadbirlar yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat, milliy g'urur, tariximiz va qahramonlarimizga hurmat tuyg'ularini mustahkamlab, ularni ona yurt taqdiri uchun mas'ul shaxslar etib tarbiyalashga zamin yaratmoqda. Faxriylar, harbiy xizmatchilar va yoshlar o'rtasidagi uchrashuvlar avlodlar davomiyligini ta'minlab, hayotiy tajriba va saboqlarning bevosita yetkazilishiga imkon bermoqda. Bu esa yoshlarda armiyaga, harbiy kasbga bo'lgan qiziqish va ehtiromni yanada oshirmoqda.

Umuman olganda, Markaziy harbiy okrugda o'tkazilayotgan vatanparvarlik tadbirlari milliy armiyamizni xalq bilan yanada yaqinlashtirib, "Armiya va xalq – bir tan-u bir jon" degan ezgu g'oyani amalda namoyon etmoqda. Bu tashabbuslar Yangi O'zbekistonni barpo etishda har tomonlama yetuk, Vatan taqdiri uchun mas'ul bo'lgan, jasur va vatanparvar avlodni voyaga yetkazishda mustahkam ma'naviy poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

Parvina ABDUHAMIDOVA,
Markaziy harbiy okrug
matbuot xizmati
bosh mutaxassisi



MUASSIS
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MUDOFAA VAZIRLIGI

VATANPARVAR



Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev
podpolkovnik Timur Narziyev
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:

kotibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

Navbatchi:

podpolkovnik

Gulnora Xodjamuratova

Sahifalovchi: Dilnoza Meliqo'ziyeva

Musahhih: Mastura Qurbonova

Buyurtma: 2

Hajmi: 6 bosma taboq

Bichimi: A3

Adadi: 34 350 nusxa

Bosishga topshirish vaqti: 14:00

Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Muruvvatli-dil press" MChJ mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.

Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqib boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.

Bahosi: kelishilgan narxda.

"Muruvvatli-dil press" MChJ

bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri

Chilonzor tumani "Nafosat" MFY Qatortol

ko'chasi, 21-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan
tahririyati bilan bog'lanish
uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA

www.mudofaa.uz

t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi

www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@umail.uz

[mudofaavazirligi](https://www.facebook.com/mudofaavazirligi)

[mudofaavazirligi](https://www.instagram.com/mudofaavazirligi)

www.youtube.com/c/UzArmiya

